

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“INVESTITSION FAOLIYAT” FAKULTETI

Bitiruv malakaviy ishi
Himoyaga tavsiya etildi
“Korporativ boshqaruv va raqobatni
rivojlantirish” kafedrasini mudiri,
i.f.n., dot. R.X. Karlibayeva

« _____ » _____ 2012 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Milliy iqtisodiyotni rivojlanishida korxonaning o'rni va zarurligi

Bajardi: “Inqirozga qarshi boshqaruv” ta'lim yo'nalishi
ИКБ-75 guruhi bitiruvchi
kurs talabasi Teshabaeva M.A. _____

Ilmiy raxbar:
i.f.n. Mirzayev F.I. _____

TOSHKENT–2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. KORXONALARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH- NING NAZARIY ASOSLARI	8
1.1. Korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari va ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni.....	8
1.2. Korxonalarini tashkil etishning huquqiy-iqtisodiy jihatlari	15
1.3. Korxonalarini boshqarishda xorijiy davlatlarning tajribasi	22
II BOB. KORXONALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	31
2.1. "SREDAZENERGOSETPROEKT" ishlab chiqarishni boshqarishni rivojlantirish tahlili	31
2.2. "SREDAZENERGOSETPROEKT" OAJni investitsion jozibadorligi tahlili	39
2.3. Korxonalar faoliyatini rivojlanishining hozirgi holati tahlili	44
III-BOB. MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	54
3.1. "SREDAZENERGOSETPROEKT" OAJning samaradorligini oshirish yo'llari	54
3.2. Korxonalarda eksport salohiyati va uni rivojlantirish yo'llari	61
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	71
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	75
ILOVALAR.....	81

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada va muntazam ravishda oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsad va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratadi.

Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov "Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosatini yuritishga alohida e'tibor qaratildi. 2011 yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 10 milliard 800 million dollardan ortiq kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi" deb ta'kidlagan edilar.¹

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotning real sektori korxonallarning qo'llab quvvatlash, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutadi.

Milliy iqtisodiyotimizni rivojlanishida korxonaning o'rni va zarurligi kiritilgan yangi investitsiyalar va mavjud moddiy-texnika asosini modernizatsiya qilishdan tashqari boshqaruvning demokratik tamoyillarini kuchaytirish, korxonalar, firma va ularga tenglashtirilgan ishlab chiqarish tuzilmalarining xo'jalik faoliyati bilan bog'liq mustaqillik doirasini kengaytirish, siyosatning iqtisodiyotdan ustunligiga barham berish, inson faoliyatining barcha soha va tarmoqlarida tashabbuskorlik, izlanishlarning rivojlanishiga keng imkoniyatlar berilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi, 20.01.2012, № 14, 9 bet

Mamlakatimizning iqtisodiy islohotlar bosqichlarida iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilmasida tub o'zgarishlarga asos solishdan iborat g'oyat muhim masala bu korxonani tashkil etish va rivojlantirish. Mamlakat iqtisodiyotning rivojlanishi, jahon xo'jaligida salmoqli o'rin egallashida real sektorning ahamiyati va ro'li yuksak ekanligi hech kimga sir emas. Lekin, bozor munosabatlari mexanizmlarining mustaqil, tashqi omillarning ta'sir doirasidan holi ravishda ishlashi, tovar va xizmatlar bozorida raqobatning shiddatli tus olishiga zamin yaratdi. Ana shunday globallasuv sharoitlarida korxonalar menejmenti muntazam ishlab chiqarish jarayonida yangi texnologiya, innovatsion dasturlardan foydalanishi talab qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlari real sektor korxonalarining nafaqat joriy muddatda olinayotgan foyda, balki uzoq muddatli, puxta o'ylangan strategiya asosida faoliyat yuritishini talab qilib, korxonada doimiy ravishda moliyaviy tahlil olib borilishi, zaif jihatlari aniqlanishi, zaruriyat bo'lganda rentabellik, to'lovga layoqat, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik va boshqa bir qator koeffitsentlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritirishi darkor.

Korxonalariga soliq, bojxona, tashqi iqtisodiy faoliyat va boshqa sohalarda turli imtiyozlar berish orqali ularning har tomonlama rivojlanishiga imkoniyatlar yaratildi. Ular faoliyatiga davlat boshqaruv va nazorat organlarining noqonuniy aralashuviga chek qo'yilmoqda, hokimiyat organlaridan tadbirkorlik subyekti ro'yhatdan o'tish tartibi keskin soddalashtirildi, ularga xizmat ko'rsatishda rahbar va mas'ul hodimlar javobgarligini oshirish bo'yicha tegishli me'yoriy huquqiy baza kundan-kunga takomillashib bormoqda.

Shuning uchun yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytish kerakki, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Korxonalar faoliyatini rivojlantirishning alohida masalalari, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, xalq xo'jaligi tarmoqlarining u yoki bu jihatlariidagi ishlab chiqarish korxonalarini ma'lum darajada o'rganilgan.

Mamlakatimiz olimlari, chet el olimlari, yashab ijod etgan allomalarimiz kabi yirik iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham korxonalar iqtisodiyoti mavzulari o'rganilgan. Masalan, «Korxonalar iqtisodiyoti» fanidan Ivanov V.N., Kuznetsov O.V., Lapusta M.G., Morrell D., Riks Devid A., Rubin Yu.B. kabi darsliklar va o'quv qo'llanmalar o'rganilgan va qiyosiy tahlil qilindi. Mamlakatimizda G'oyibnazarov B.K., Akramova N.I, G'ulomov S.S., Abdullayev E, Muhammedov M., Istamov S., tomonidan tayorlangan darslik, o'quv qo'llanmalar va ilmiy ishlari foydalanilgan. Korxonalar iqtisodiy holati va moliyaviy sog'lomlashtirish masalalarini nazariy va amaliy nuqtai nazardan bir qator tadqiqotchilar V.Shapiro², T.Aleksandr³, I.G.Egorov⁴, N.H.Hasanov, S.F.Najbiddinov⁵, G.K.Saidova⁶, D.Heigel⁷, E, B.Shvehr⁸, R.A.Vutzke⁹, B.Uhlenbrak, Bork¹⁰, keng miqyosda o'rganilgan bo'lib, ular o'zlarining ilmiy ishlarida avvalo korxonalar iqtisodiyotdagi mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari va ularning tashkil etishning iqtisodiy jihatlarning amaliy va nazariy ahamiyati, uning zaruriyati, tamoyillari va qonuniyatlariga oydinlik kiritilgan. Bitiruv malakaviy ishida o'zbek, rus tadqiqotchilar bilan birga, ushbu sohaning rivojiga salmoqli hissalarini qo'shib kelayotgan ingliz, nemis, fransuz va boshqa tadqiqotchi, professorlarning ilmiy faoliyatlari natijalaridan ham foydalanilgan, u o'z navbatida rivojlangan davlatlarda yo'lga qo'yilgan korxonalar boshqaruv taomillarini taqqoslashga va afzal tomonlarini o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar o'zlarining e'tiborini korxonaning ijtimoiy iqtisodiy mazmunini ochib berishga, uning

² Мазур И.И., Шапиров В.Д. Реструктуризация предприятий и компаний.—М.: Изд-во экономика, 2002. 56-58 .

³ Темкин Александр. “Реструктуризация бизнеса или финансовое оздоровление?”//[Управление компанией](#) – М.:– 2003. №4. 63

⁴ Крюков А.Ф. , Егорчев И.Г. Анализ методик прогнозирования кризисной ситуации коммерческих организаций с использованием финансовъх индикаторов// Менеджмент в России и за рубежом, 2001. №2. 54

⁵ Хасанов Н.Х., Нажбиддинов С.Ф. Оценка экономического состояния предприятия: проблемы и решения – Т.: «Мир экономики и права»,1999г.–224.

⁶ Саидова Г.К. Кое-что о банкротстве//Экономическое обозрение – Т.: 2003. №2, 78

⁷ Хэйгел Джон. Ложный путь к эффективности, "Вестника McKinsey". <http://www.vestnikmckinsey.ru>

⁸ Bianca Schwehr, “Corporate Rehabilitation Proceedings in the United States and Germany”. www.interscience.wiley.com. last access date: 27.04.2011.

⁹ Wutzke RA, “Report on the insolvency plan procedure on the occasion of the ZInsO—conference” (24./25. 05. 2002 in Berlin).

¹⁰ Bork, Insolvenzrecht, marg. no. 333; Herzig, Das Insolvenzplanverfahren, pp. 41 et seq.; Kübler/ Prütting/Otte, InsO, § 231 marg. no. 4 t seq

umumnazariy masalalarini o'rganishga, jamiyat hayotini moddiy jihatdan ko'tarishda uning o'rne va ahamiyatini asoslashga qaratganlar. Korxonalar faoliyatini rivojlantirish xussiyatlari va muammolarni tadqiq etishga yetarlicha e'tibor bermaganlar. Ma'lumki, kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish ayni chog'da mintaqaviy muammo hamdir. Bu muammolarni hal etish uchun uning o'z joyida mahalliy imkoniyatlar va mahalliy korxonalarni ishlab chiqarish orqali hal etish asosiy masaladir.

Shuning uchun korxonalar faoliyatini rivojlantirishning amaliy yo'llarini ilmiy umumlashtirilgan holda yetarli darajada tahlil qilinmaganligi va boshqa muhim yechilmagan muammolarning mavjudligi ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi korxonalar iqtisodiy faoliyatini, boshqaruv mexanizmini nazariy-uslubiy asoslarini, hamda chet el tajribasini o'rganib, respublikamiz korxonalarini roli va ahamiyatiga e'tibor qaratish bilan iqtisodiy holatining mezonlarini tahlil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olindi:

- korxonaning iqtisodiy holatining makroiqtisodiy mohiyatini aniqlash;
- korxonalarni tashkil etishning asosiy huquqiy-iqtisodiy jihatlarini o'rganish;
- korxonalarni boshqarishda chet el tajribasini o'rganish va tahlil qilish;
- korxonalarining faoliyati samaradiligini oshirishdagi kadrlar tayyorlash tizimining ta'sirini tavsiflash;

- korxonalarni tashqi muhiti hamda eksport salohiyatini rivojlantirish imkonlarini va asosiy tendentsiyalarini aniqlash;

- “SREDAZENERGOSETPROEKT”OAJsining ishlab chiqarish va boshqaruv tarkibini, moddiy-texnik ta'minotini, xo'jalik va investitsiya faoliyatini tahlil qilishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. “SREDAZENERGOSETPROEKT” OAJsi tanlangan.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. “SREDAZENERGOSETPROEKT” OAJning boshqarish mexanizmi, iqtisodiy holati va investitsiya faoliyatiga yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy yangiligi va ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida ilmiy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasining tegishli vazirliklari, agentliklari va korxonalar muassasalari tomonidan dasturlar tayorlashda qo‘llanilgan.

Bitiruv malakaviy ishi materiallaridan Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida “Iqtisodiy tahlil”, “Inqirozga qarshi boshqaruvi”, “Korxonalar iqtisodiyoti”, “O‘zbekiston iqtisodiyoti”, “Tashqi iqtisodiy faoliyat” kabi o‘quv kurslarida axborot va tahliliy baza sifatida foydalanilgan.

Xulosalarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar. Bitiruv malakaviy ishida quyidagi tavsiyalar berilgan: korxonada ichki mehnat taklifi tarkibining o‘zgarishlariga faol ta'sir ko‘rsatadigan o‘z kadrlar siyosatini ishlab chiqarish va amalga oshirish, shu jumladan, kadrlar malakasini oshirish, aralash kasblarga qayta tayyorlash va o‘qitishni o‘z ichiga oladigan «Hodimlarni rivojlantirish dasturi»ni ishlab chiqish. shuningdek, korxonalar hodimlarining innovatsion jarayonlarga mos kasb-malakasini takomillashtirib borishlariga erishish.

I-BOB. KORXONALARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Korxonalarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti jamiyatni demokratiyalashtirish, iqtisodiyot salohiyatlarini mustahkamlash va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga kiritishga yo'naltirilgan, bozor munosabatlariga o'tishning mamlakatimiz uchun maxsus ishlab chiqilgan modeli asosida rivojlanib bormoqda. Bu model O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan iqtisodiyotni isloh qilishning beshta tamoyiliga asoslangan hamda xo'jalik faoliyati yurituvchi subyektlarning erkinligi, xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni himoya qiluvchi zaruriy qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan. Iqtisodiyotning rivojlanishi uchun talab qilinuvchi ushbu vazifalarning amalga oshirilishida korxonalariga katta ro'l ajratilib, ular iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo'g'ini bo'lish bilan birga mahsulot ishlab chiqarish, aholiga xizmat ko'rsatish tufayli iste'molchilarning talablarini ham qondiradilar.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, korxonalar - huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi subyekt bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foyda) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi. Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalarida turli xil mulkchilik shakliga ega bo'lgan 500 mingta xo'jalik faoliyati yurituvchi subyekt mavjud bo'lib, ulardan qariyb 280 mingini kichik korxonalar hamda mikrofirmalar tashkil etadi. Korxonalarining eng katta qismi savdo va umumiy ovqatlanish (34%), qishloq xo'jaligi (41%), sanoat (9,4%) va qurilish (56%) sohalarida ro'yxatga olingan. Jami korxonalar miqdorida

nodavlat sektorining salmog'i katta bo'lib, 82 %ni tashkil qiladi.¹¹ O'zbekistonda ko'plab kichik, va yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarini – og'ir sanoatdan yengil sanoatgacha, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdan ilmiy ishlab chiqarishgacha qamrab olgan.


Biz bitiruv malakaviy ishimizda korxonaning belgilari, funktsiyalari va vazifalarini ko'rib chiqamiz. Zamonaviy korxonamustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lib, ularning ishlab chiqarish vositalari va boshqa mulklari o'ziga tegishli bo'ladi. Shu sababli korxonalar mulkchilik shakliga ko'ra, davlat va nodavlat; tarmoq belgilariga ko'ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft va gaz sanoati, qurilish kompleksi, oziq-ovqat, yengil sanoat, savdo; ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga ko'ra, yirik, mikrofirma va kichik; faoliyat yuritish muddatiga ko'ra, uzluksiz, mavsumiy va uzlukli korxonalar bo'linadi. Biroq ushbu belgilardan qat'iy nazar, deyarli har bir korxonamustaqil asosida faoliyat yuritadi. Nizomda korxonaning nomi, manzilgohi, yuqori turuvchi organi va bu organning nomi, Nizom jamg'armasi, bank muassasalaridagi rekvizitlari, korxonamustaqil rahbariyatining lavozimlari, rahbar shaxslarning majburiyatlari, tuzilmaviy bo'linmalar ro'yxati, hisobot tartibi ko'rsatilgan bo'ladi. Agar Nizomda korxonaning tashkiliy-huquqiy funktsiyalari belgilangan bo'lsa, uning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyati tarkibiga asosiy va aylanma fondlar, pul mablag'lari va boshqa aktivlar kiruvchi Nizom jamg'armasiga tayanadi. Nizom jamg'armasi qonunga asosan korxonamustaqil tashkil qilish jarayonida muassislar - davlat, huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan shakllantiriladi.

Korxonamustaqil rivojlanishi va ishlab chiqarishning kengayib borishi, daromad hajmi va boshqa moliyaviy tushumlarning ortishi natijasida Nizom jamg'armasi ko'paytirilishi mumkin. Umuman olganda, Nizom jamg'armasi korxonamustaqil iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy jihatdan baquvvatligini aks ettiradi.

¹¹ Statistik to'plam O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiyava ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar Toshkent: "O'zbekiston" 2011, 23 bet.

Amaldagi qonunchilikka asosan korxonalar davlat ro'yxatidan o'tganidan keyingina huquqiy shaxs sifatida tan olinadi. Davlat ro'yxatidan o'tish uchun birinchi o'rinda quyidagi hujjatlar ahamiyatga ega bo'ladi: muassisning arizasi; korxonaning Nizomi; korxonani tashkil qilish haqida qaror yoki muassislarning shartnomasi; davlat bojini to'laganlik haqida kvitantsiya va boshqalar.

Biz bitiruv malakaviy ishimizda korxonani belgilalarini 1-rasmda ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Korxonalarni belgilarga ko'ra tasniflash¹²

Biz bitiruv malakaviy ishimizda korxonaning xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Birinchi, korxonalar o'ziga tegishli va xo'jalik boshqaruvidagi xususiy mulkka ega bo'lib, ushbu mulk uning faoliyati moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligi va ishonchliligini ta'minlaydi; Ikkinchi, korxonalar

¹² Muallif tomonidan tayyorlangan.

kreditorlar, jumladan, davlat bilan o'zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o'z mulki bilan javob berish xususiyatiga ega bo'ladi; Uchinchidan, korxonada xo'jalik aylanmasida o'z nomidan harakat qilishi mumkin, ya'ni qonunga asosan xo'jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste'molchilari, xom ashyo va asbob-uskuna yetkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzish huquqiga ega; To'rtinchidan, korxonada qonunchilikka asosan sudda da'vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega; Beshinchidan, korxonada mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi hamda davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi; Oltinchidan, korxonada o'z nomiga ega bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'z aksini topadi.¹³

Xo'jalik rivojlanishining har bir bosqichida korxonalar faoliyati vazifalarni bajarishga qaratilishi zarur. Ular quyidagilar:

- korxonada egasining daromad olishi;
- iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan ta'minlash;
- xodimlarni ish haqi bilan ta'minlash;
- korxonaga yaqin joylarda yashovchi aholi uchun ish joylari yaratish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- korxonada faoliyatida to'xtab qolishga yo'l qo'ymaslik;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarini mukammallashtirish;
- ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida tejamkorlikka rioya qilish.

Xo'jalik faoliyatining joriy va istiqboldagi vazifalarini bajarish korxonalardan quyidagi funktsiyalarni amalga oshirishni talab qiladi:

- ishlab chiqarish va shaxsiy iste'mol uchun mahsulotlarni tayyorlash;
- mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish va sotish;
- sotuvdan keyin xizmat ko'rsatish;

¹³ Abdulkarimov I.T. "Korxonada iqtisodiy salohiyati tahlili" darslik, T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi 2010 yil, 58 bet.

- ishlab chiqarishning moddiy-texnika asosini ta'minlash;
- xodimlar mehnatini tashkil qilish va boshqarish;
- soliqlarni to'lash, byudjetga to'lanuvchi ixtiyoriy yoki majburiy badal va to'lovlarni amalga oshirish ;
- amaldagi standartlar, normativlar va davlat tomonidan chiqarilgan qonun-qoidalarga rioya qilish.¹⁴

Korxonalarining eng muhim xususiyatlari ularning qaysi tarmoqqa qarashliligi; hajmi; ishlab chiqarishning turli jabhalarini qamrab olganligi; ixtisoslashtirish darajasi va bir tipdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish miqyosi; ishlab chiqarishni tashkillashtirish usuli hamda uni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish; tashkiliy-huquqiy shakllarini prognozlashtirishga bog'liq bo'ladi.

Qaysi tarmoqqa qarashliligiga ko'ra korxonalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (mashinasozlik, ko'mir qazib chiqarish, sug'urta va hokazo) sohalariga mansub bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ko'rinishiga ko'ra, korxonalar sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, moliya-kredit va boshqalarga bo'linadi.

Tayyor mahsulotning maqsadlariga ko'ra, barcha korxonalar ikkita katta guruhga bo'linadi: ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchilar va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar.

Foydalaniluvchi xom ashyo turiga ko'ra, sanoat korxonalari qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarga taqsimlanadi.

Yil davomida ishlash muddatiga ko'ra, korxonalar mavsumiy va yil bo'yi faoliyat yurituvchilarga bo'linadi.

Hajmiga ko'ra, korxonalar yirik, mikrofirma va kichik korxonalarga taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-

¹⁴Akromov E.A. «Korxonalar iqtisodiyoti» T.: "Moliya" 2009yil, 39 bet.

tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Farmoniga asosan ishlab chiqarish tarmog'ining o'rtacha yillik xodimlari soni 20 kishigacha bo'lgan hamda xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohasidagi o'rtacha yillik xodimlari soni 10 kishigacha bo'lgan; ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan korxonalar mikrofirmalar qatoriga kiritiladi.

Kichik korxonalar bu, yengil va oziq-ovqat sanoati, metalga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoatida 100 kishigacha ishlaydigan; mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qurilish, qishloq xo'jaligi va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida 50 kishigacha ishlaydigan; fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish xamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida 25 kishigacha ishlaydigan korxonalariga aytiladi.

Ixtisoslashuv darajasiga ko'ra, korxonalar ixtisoslashgan, universal va aralash korxonalariga bo'linadi. Ixtisoslashgan korxonalar qatoriga nomenklaturasi cheklangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, universal korxonalar qatoriga turli xil mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar, aralash korxonalar tarkibiga esa ixtisoslashgan va universal korxonalar o'rtasidagi oraliq guruhni tashkil qiluvchi korxonalar kiritiladi.

Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayonlarini kengaytirish va chuqurlashtirish mamlakatimizda yangi tashkiliy-huquqiy turdagi - qo'shma, ijara, hissadorlik, xususiy, oilaviy, kooperativ va boshqa korxonalarining paydo bo'lishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xususiy mulk mulkchilik shaklining boshqa ko'rinishlari bilan bir qatorda daxlsizligi va davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilab qo'yilgan. Hozirgi zamon sharoitlarida davlat, munitsipal, jamoa, individual (oilaviy, xususiy) turlarga ham tasniflanadi. Korxonalar huquqiy shaklining har bir ko'rinishida ularning egalari, ya'ni xususiy mulk egalari, korxonalar bilan turli darajadagi aloqada bo'ladilar. Masalan, ochiq turdagi hissadorlik jamiyati egalari korxonalar mulkining bir

qismigagina egalik qilish huquqiga egalar hamda boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishda ham o'z aksiyalari miqyosida ishtirok etadilar. Xo'jalik o'rtoqliklarida (jamiyatlarida) esa mulk egasi va mulk yaqinlashtirilgan bo'lib, korxonani boshqarishda ularga bevosita ishtirok etish imkoniyati yaratib berilgan.

Keng tarqalgan korxonalar shakllaridan biri xo'jalik o'rtoqliklari bo'lib, ular ishonch asosidagi to'liq o'rtoqlik, kommandit o'rtoqligi ko'rinishida tashkil qilinishi mumkin. Qonunga asosan ishtirokchilari imzolangan shartnomalar bo'yicha tadbirkorlik faoliyati yurituvchi hamda ularga tegishli mulk javobgarligiga ega bo'lgan o'rtoqliklar - to'liq o'rtoqliklar hisoblanadi. Kommandit o'rtoqligi bir nechta fuqarolar yoki huquqiy shaxslarning o'zaro xo'jalik faoliyati yuritish maqsadidagi shartnomalar asosida birlashuvi natijasida paydo bo'ladi. Jamiyatlarning ko'pchiligida kapitallar birlashtirilgan bo'ladi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilib, Nizom jamg'armasi hujjatlarda (Nizom va ta'sis shartnomasi) belgilab qo'yilgan ulushlarga bo'lingan bo'ladi. Bunday jamiyat muassislari jamiyatning majburiyatlari uchun javobgar bo'lmaydilar hamda jamiyat faoliyatida o'zlari kiritgan ulushlar doirasida zarar ko'rishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasida ochiq va yopiq turdagi hissadorlik jamiyatlari mustaqillikka erishilgandan keyin keng faoliyat ko'rsatmoqda. Nizom jamg'armasi aksiyalarga taqsimlangan jamiyat hissadorlik jamiyati hisoblanadi. Hissadorlik jamiyati a'zolari jamiyatning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar, biroq o'zlariga tegishli bo'lgan aksiyalar qiymati doirasida zarar ko'rishlari mumkin.

Hissadorlik jamiyatlarining ijobiy jihatlari qatoriga quyidagilar kiradi: aksiyadorlik kapitalining teng taqsimlangan, erkin muomaladagi ulushlar - aksiyalarga taqsimlanishi; aksiyadorlar jamiyat majburiyatlari uchun javobgarligining aksiyalar qiymati hajmida cheklanganligi; aksiyadorlik kapitalining hajmi va a'zolar sonini osonlik bilan o'zgartirish imkonini beruvchi Nizom asosida birlashish; umumiy boshqaruv vazifalarining xo'jalik faoliyatini boshqarish vazifalaridan alohida yuritilishi va hokazolar.

Korxonada tuzilmasi va uni belgilovchi omillar har bir ishlab chiqarish korxonasi ishlab chiqarish bo'linmalari, boshqaruv organlari va korxonada xodimlariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlardan iborat bo'ladi. Tuzilma (struktura) tushunchasini korxonaning tarkibi, tuzilishi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Korxonada qanchalik yirik bo'lsa, uning ishlab chiqarish tuzilmasi shunchalik murakkab bo'ladi. Sanoat korxonalarining umumiy va ishlab chiqarish tuzilmalari mavjud. Ishlab chiqarish bo'g'inlari, korxonada boshqaruvi hamda xodimlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ularning miqdori, kattaligi va egallab turgan maydoni, xodimlarining soni va ishlab chiqarish imkoniyatlari korxonaning umumiy tuzilmasini ifodalaydi.¹⁵


Amaliyotda ishlab chiqarish tuzilmasini mukammallashtirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Ular qatoriga korxonada va sexlarni yiriklashtirish; alohida korxonalar integratsiyasi; korxonada ichidagi barcha bo'linmalar orasida mutanosiblikni ta'minlash; seksiz struktura kabilarni kiritish mumkin. Korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, ya'ni boshqaruv sifatini ko'tarish va ishlab chiqarish faoliyatidagi yakuniy natijalarning yuqoriligiga erishish korxonada tuzilmasini mukammallashtirish samaradorligini baholovchi mezon bo'lib xizmat qiladi.

1.2. Korxonalarni tashkil etishning huquqiy-iqtisodiy jihatlari

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi faoliyat yuritayotgan korxonalardan tashqari, yangi korxonalarni tashkil qilish va ishga tushirishga tayanadi. Bunday qadam iqtisodiy jihatdan maqbullikka, resurslar imkoniyati va korxonada mahsulotlariga bo'lgan talabga asoslanadi. Biron-bir mahsulotning taqchilligi yoki umuman yo'q bo'lishi ham, yangi korxonada yoki ishlab chiqarishni tashkil qilishga sabab bo'lishi mumkin. Korxonani tashkil qilish tamoyillari 2- rasmda ko'rishimiz mumkin.

¹⁵ Макаревиц М.С., Смолькин Л.Г., Трубочкина М.И. “Экономика предприятия” Учебное пособие.М.: - “Кнорус” 2011 г. 78 bet.

Korxonani tashkil qilish tamoyillari



2-rasm Korxonani tashkil qilish tamoyillari¹⁶.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiliga asosan, korxonalar mulk egasi (egalari) yoki u (ular) tayinlagan vakillik organi, mehnat jamoa yoki muassislar guruhining qarori bo'yicha belgilangan qonun-qoidalarga asosan tashkil qilinishi mumkin. Shuningdek, korxonalar agar korxonaga mulki egasi yoki u tayinlagan vakillik organining roziligi bo'lsa, faoliyat yuritayotgan korxonaga tarkibidan bir yoki bir nechta tarkibiy bo'linmalarni, ushbu bo'linmalarning mehnat jamoalari tashabbusiga ko'ra, ajratib chiqarish natijasida ham tashkil topishi mumkin. Korxonaga joriy va hisob-kitob raqamlari ochish va ular to'g'risidagi holatlarni tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan, mustaqil huquqiy shaxs maqomidagi sho'ba

¹⁶ Muallif tomonidan tuzilgan.

korxonalari, filiallar, vakolatxonalar, bo'lim va boshqa tashkiliy bo'linmalarni tashkil qilishi mumkin. Korxonalar qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda maxsus davlat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi va huquqiy shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Yangi korxonalar tashkil qilishdan asosan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- iste'molchilar talab qilayotgan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va uni sotishdan foyda (daromad) olish;
- ishlab chiqarishga ish bilan band bo'lmagan aholini jalb qilish va shu orqali ish bilan ta'minlashdagi ijtimoiy muammolarni hal qilish;
- ishlab chiqarishga mavjud qo'shimcha resurslarni jalb qilish;
- fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- yakka tarzda yoki hamkorlikda faoliyat yuritish uchun kichik korxonalar (o'rtoqchilik kabi) tashkil qiluvchi alohida fuqarolar yoki shaxslar guruhi a'zolarining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish;
- ishlab chiqarishni mustahkamlash va rivojlantirish hamda bozor muhitini kengaytirish.¹⁷

Yangi korxonalar tashkil qilishdan asosiy maqsadlar belgilangandan keyin ta'sis hujjatlari tuziladi. Ta'sis hujjatlarni tayyorlash korxonani tashkil etish va keyingi faoliyat yuritish jarayonidagi muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ta'sis hujjatlar faoliyat yurituvchi korxonalarining huquq va majburiyatlarini hamda sharoitlarini ifodalaydi.

Korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida ikki xil ta'sis hujjatlari belgilab berilgan: korxonalar Nizomi va ta'sis shartnomasi. Amaliyotda korxonalar faqat Nizom yoki faqat ta'sis shartnomasi asosida, shuningdek, bir vaqtning o'zida Nizom va ta'sis shartnomasiga asosan faoliyat yuritish hollari mavjud. Shuni qayd qilib o'tish kerakki, korxonaning (huquqiy shaxsning) ta'sis shartnomasi kelishuv asosida tuziladi, Nizom esa muassis (muassislar) tomonidan

¹⁷ Jalilov J.M. "Korxonani tashkil qilish tamoyillari", "Korxonani boshqarish" jurnali, 2010 yil, №8, 29 bet.

tasdiqlanadi. Bitta ta'sischi tomonidan tuzilgan huquqiy shaxs shu ta'sischi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat yuritadi. Korxonani Nizomi asosiy ta'sis hujjati bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli, nomi va manzilgohi, Nizom jamg'armasining miqdori, daromadlarining tarkibi va taqsimlanish tartibi hamda korxonani fondlarini tashkil qilish tartibi, korxonani tugatish va qayta tashkil qilish tartibi ko'rsatilishi shart. Boshqacha qilib aytganda, korxonani Nizomi uning huquqiy maqomini, huquq va majburiyatlarini belgilab beradi. Nizomda shuningdek, korxonani faoliyat ko'rsatuvchi soha va tarmoq, atrof-muhit va odamlar sog'lig'ini muhofaza qilish kafolati, boshqaruv shakli, hisobga olish va hisobot tizimi ham aks ettirilishi lozim. Korxonani to'g'ri va to'liq tayyorlangan Nizom asosida mahalliy hokimiyat organlarida ro'yxatga olinadi, keyin esa o'z muhriga ega bo'lish va bankda hisob raqami ochish huquqini qo'lga kiritadi. O'z muhri va hisob raqamiga ega bo'lmagan korxonani, huquqiy shaxs hisoblanmaydi va mustaqil korxonalar qatoriga kiritilmaydi. Ta'sis shartnomasi korxonaning tashkil qilinishi va yakka tarzda yoki hamkorlikdagi faoliyatning boshlanishini tavsiflovchi hujjatdir. U shuningdek, tashkil etilayotgan korxonaning Nizomini to'ldiruvchi hujjat ham hisoblanadi. Ta'sis shartnomasida korxonani tashkil qilish tartibi, daromad va xarajatlarni qatnashchilar o'rtasida taqsimlash shartlari, korxonani tashkilotchilari (muassislar) tarkibidan chiqish shartlari belgilab qo'yiladi. Ta'sis shartnomasi asosida ko'pincha kichik korxonalar, xo'jalik o'rtoqligi va shu kabi subyektlar faoliyat yuritadi. Masalan, o'rtoqlik yoki korxonaning ta'sis shartnomasida boshqaruv faqat barcha ishtirokchilarning roziligi bilan emas, balki qaror ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinishi mumkinligi ham belgilab qo'yilishi mumkin. To'liq o'rtoqchilik korxonalarining daromad va xarajatlari agar shartnomada boshqa tartib ko'rsatilmagan bo'lsa, ishtirokchilar o'rtasida ularning umumiy kapitaldagi ulushiga mos ravishda taqsimlanadi. Korxonani mulkini shakllantirish va undan foydalanish Nizom va Ta'sis shartnomasining muhim qismi hisoblanadi. Davlat korxonalarining mulkiy huquqlarini kafolatlaydi.

“Xususiy korxonalar to’g’risida” gi qonunga asosan korxonalar mulkini 7ta xil manbadan shakllantirish mumkin.¹⁸

Korxonalar mulkini shakllantirish manbalari:

- 1) Muassislarning pul va moddiy ko’rinishdagi badallari;
- 2) Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan va boshqa turdagi faoliyatdan olingan daromadlar;
- 3) Qimmatbaho qog’ozlardan olingan daromadlar;
- 4) Banklar va boshqa kreditorlardan olingan kreditlar;
- 5) Byudjetdan olinuvchi mablag’lar (dotatsiya), kapital qo’yilmalar;
- 6) Korxonalar, tashkilot va fuqarolarning beg’araz va xayriya badallari, shuningdek, almashish, meros va sovg’a tariqasida olinuvchi mulk;
- 7) Qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Biz bitiruv malakaviy ishimizda korxonalarining davlat tomonidan ro’yxatga olinishini ko’rib chiqamiz. Korxonalar joylashgan manzilgohi bo’yicha davlat organlarida ro’yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi. Bu vazifani asosan hokimiyatlar bajarib, ular korxonani ro’yxatga olish to’g’risidagi ma’lumotlarni 12 kun mobaynida Moliya Vazirligiga yagona davlat reestriga kiritish uchun taqdim etishlari shart.


Korxonani davlat tomonidan ro’yxatga olish zarur hujjatlar ilova qilingan ariza berilgan kundan boshlab 30 kun mobaynida amalga oshirilish lozim.

Davlat ro’yxatidan o’tish uchun korxonani tashkil qilish to’g’risidagi qaror, korxonalar Nizomi (ta’sis shartnomasi) va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriluvchi ro’yxatdagi boshqa hujjatlar taqdim etiladi.

Korxonalarini ro’yxatga olishdan, ularni tashkil qilish maqsadga muvofiq emas, degan sabab bilan bosh tortishga yo’l qo’yilmaydi. Agar korxonani ro’yxatga olish o’z vaqtida amalga oshirilmasa yoki ta’sischi ro’yxatga olinmaslik sabablarini asossiz deb hisoblagan taqdirda ta’sischi sudga murojaat qilishi mumkin. Korxonani ro’yxatga olishdan asossiz ravishda bosh tortish mahalliy hokimiyat organlarining moddiy javobgarlikka tortilishiga olib kelishi mumkin.

¹⁸ O’zbekiston Respublikasi “ Xususiy korxonalar to’g’risidagi” Qonuni. T.:”O’zbekiston” 30.04. 2004

Korxonani ro'yxatga olish uchun kerak bo'ladigan hujjatlarni 3 rasmda ko'rishimiz mumkin.



3-rasm. Korxonani ro'yxatga olish hujjatlari¹⁹.

Ro'yxatga olish korxonaga kelib tushuvchi hujjatlarni qayd qilish kitobida tartib raqami berish orqali amalga oshiriladi. Ko'rsatilgan jarayonlar amalga oshirilgach, korxonon joylashgan manzilgohi bo'yicha soliq idoralarida hisobda turishi va buni tasdiqlovchi hujjat olishi hamda bankda hisob raqami ochishi mumkin.

Endi korxonani tugatish va qayta tashkil qilishni ko'rib chiqamiz. Korxonon faoliyatini to'xtatish uni tugatish yoki qayta tashkil qilish shaklida amalga oshirilishi mumkin. Ishlab chiqarishning barqaror emasligi, moliyaviy qiyinchiliklar, surunkali zarar ko'rish va to'lov qobiliyatining yo'qolishini

¹⁹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

korxonalarni tugatish yoki qayta tashkil qilishga asosiy sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Korxonani qayta tashkil qilish – uning birlashib ketishi, qo'shilishi, bo'linishi, ajralib chiqish va shaklini o'zgartirishidir. Korxonani qayta tashkil qilish ta'sischi (ta'sischilar) yoki korxonada boshqaruvi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Qayta tashkil qilish korxonaning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari avvalgiga nisbatan yaxshilanishiga xizmat qilishi lozim.

Korxonani tugatish huquqiy xatti-harakat bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyatining to'xtatilishini anglatadi. Korxonada tugatilganda u davlat ro'yxatidan chiqariladi, uning bankdagi hisob raqami yopiladi hamda muhr, shtamp va boshqa rekvizitlari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Korxonani tugatishga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot(ish, xizmat)ga bo'lgan talabning pasayib ketishi yoki umuman yo'qolishi;
- ishlab chiqarishning zarar keltirishi;
- ishlab chiqarishning atrof-muhit hamda aholi hayotiga xavf tug'dirishi;
- korxonaning bino va inshootlari, asbob-uskunalar va boshqa vositalaridan iqtisodiy jihatdan unumliroq, yanada sifatli va iste'molchilar talabiga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatining yuzaga kelishi.²⁰

Korxonani tugatishda tugatish komissiyasi tuzilib, unga kreditorlarga korxonada tugatilganini xabar qilish, kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzini undirish choralari ko'rish, shuningdek, korxonaning tugatilishi sababli ishsiz qolgan xodimlar ish bilan ta'minlanishiga yordamlashish vazifasi yuklanadi. Korxonani tugatish jarayonida oraliq tugatish balansi tuzilib, unga tugatilayotgan korxonaning mulki, kreditorlarning talablari va ularni ko'rib chiqish natijalari ro'yxati kiritilishi lozim. Ushbu balans korxonaning ta'sischisi (ta'sischilari) yoki korxonani tugatish to'g'risida qaror chiqargan idora tomonidan tasdiqlanadi.

²⁰ G'oyibnazarov B.K., Akramova N.I. "Korxonalar iqtisodiyoti" ma'ruzalar matni, TDIU, T.: 2010yil, 33 bet.

1.3. Korxonalarni boshqarishda xorijiy davlatlarning tajribasi

Boshqaruv ishlab chiqarishning barcha qatnashchilari va elementlari o'rtasida kelishuvni yo'lga qo'yib, yuzaga kelgan munosabatlarning mazmuni va me'yorini tartibga soladi hamda resurslardan foydalanishning samarali yo'llarini topishga o'z hissasini qo'shadi. Boshqaruv - ijtimoiy mehnat jarayoniga ishlab chiqarish rivojlanishining obyektiv qonunlari asosida yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazish tizimi, har bir ishchining va butun jamoaning mehnatini bir vaqtning o'zida nazorat qilish, motivatsiya va tartibga solish usulidir.

Korxonani samaradorligi ko'p jihatdan boshqarish tizimini mukammalligi bilan uzviy bog'liqdir. Korxonada mulk va sarmoya egalari tomonidan yoki maxsus tanlab olingan va kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassis menejerlar tarafidan boshqariladi.

Biz bitiruv malakaviy ishimizda korxonada boshqarishni amalga oshirishdagi vazifalarni 4-rasmda ko'rishimiz mumkin.


Mehnat taqsimot tamoyili: mehnatni tashkil etish va boshqarishda vazifalar va majburiyatlarni xodimlar o'rtasida oqilona taqsimlash jarayonini anglatadi.

Vakolatlilik va majburiyat. Vakolat boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon bersa, majburiyat uning natijalari uchun javobgarlik tamoyilini belgilab beradi.

Intizom korxonada xodimlari va ishchilarining belgilangan mehnat tartibi va qoidalariga so'zsiz rioya etishini va hurmat bilan yondashishini talab etadi.

Boshqaruvda yakkaboshchilik va kollegiallik. Yakkaboshlilik tamoyili korxonada xodimlarining yagona rahbar buyruqlariga qat'iy bo'ysunushini talab qiladi. Bu tamoyilni amalga oshirishning asosiy sharti har bir ijrochining huquqlari, burchi va majburiyatlarini qat'iy belgilab qo'yishdir. Yakkaboshchilikni kollegiallik, ya'ni qabul qilinadigan qarorlarda mutaxassislar va xodimlarning keng ishtiroki bilan qo'shib olib borish mumkin. Demokratiya va oshkorlik har bir xodimning tashabbuskorligiga, o'z qobiliyatlarini namoyon qilishiga va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda faol qatnashishiga imkoniyat yaratadi.

Korxonada boshqarishni amalga oshirishdagi vazifalar



4-rasm. Korxonada boshqarishni amalga oshirishdagi vazifalar²¹

Korxonani boshqarish ma'lum bir tamoyillarga asoslanib amalga oshiriladi²². Maqsadning yagonaligi tamoyili korxonadagi barcha boshqaruv xodimlari,

²¹ Sharipov S.A Korxonada boshqaruv qarorlarni bajarilishini nazorat qilish. "Korxonani boshqarish" Jurnal, 2011 yil, №12, 45bet

²² G'oyibnazarov B.K., Akramova N.I. "Korxonalar iqtisodiyoti" ma'ruzalar matni, TDIU, T.: 2010yil, bet.

mutaxassislar va ishchilarning yagona maqsad va vazifalar yo'lida birlashishi zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Shaxsiy manfaatlar va korxonalar manfaatlarini qo'shib olib borish. Korxonaning har bir xodimi o'z shaxsiy manfaati yo'lida qattiq mehnat qilish bilan birga, o'z manfaatlarini korxonalar manfaatlaridan ustun qo'ymasligi lozim. Shu bilan birga menejrlarning korxonalar manfaatlarini ko'zlab qabul qilgan qarorlari xodimlar va ishchilarning manfaatlariga ziyon yetkazmasligi lozim.

Rag'batlantirish tamoyili asosida korxonalar hodimlarining mehnati natijalarini munosib taqdirlash orqali mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish yotadi.

Rejali bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni rejali boshqarish iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashning muhim shartidir. Bu tamoyil ishlab chiqarish rivojlanishining qisqa va uzoq muddatlarga mo'ljallangan yo'nalishlari, sur'atlari va nisbatlarini belgilashni ifodalaydi.

Shaxsiy tashabbuskorlik bozor iqtisodiyoti tadbirkor, shaxsiy manfaati yo'lida tashabbuskorlik bilan xarakat qiluvchi, omilkor shaxslarni rag'batlantiradi.

Javobgarlik va tavakkalchilik boshqaruvchi o'z faoliyati natijalari uchun ma'lum bir javobgarlikka ega bo'lishi, bunda ma'lum tavakkalchilik (risk) elementlarini xam hisobga olishi lozim.

Boshqaruv etikasiga rioya etish. Bu tamoyil boshqaruv xodimlaridan bilimli, madaniyatli va xushmuomala bo'lishni, xodimlarga ishonish va ularni eshita bilishni talab etadi.

Boshqaruv shakli va usullarini takomillashtirib borish. Kuchli raqobat sharoitida korxonalar sinmasligi uchun menejrlar doimo o'z ustilarida tinmay ishlab, boshqaruv usullarini takomillashtirib borishlari va bozordagi o'zgarishlarga moslashishlari lozim.

Korxonani boshqarishni oziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Korxonalar faoliyatini boshqarish jarayoniga tashqi va ichki omillar ta'sir krsatadi. Ichki omillarga korxonaning kata -kichikligi , resurslar miqdori va uni taqsimlanishi,

texnologik darajasi, mehnatni tashkil etish usullari, baho siyosati va boshqalar kiradi.

Tashqi omillar korxonadan tashqaridagi muhit ta'sirida vujudga keladi. Ular qatoriga bozor konyukturasi va raqobat muhiti, mol yetkazib beruvchi va iste'molchilarning xatti-harakatlari, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar, siyosiy va ijtimoiy omillar, huquqiy-me'yoriy baza va davlat boshqaruvi kabi omillar kiradi.

Boshqaruvga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar korxonaning ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va boshqa faoliyati natijalariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi sababli, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda har bir omilni hisobga olish zarur.

Korxonani boshqarishni o'ziga xos xususiyatlari uni bajarayotgan funktsiyalariga, iqtisodiyotdagi o'rniga, u faoliyat ko'rsatayotgan biznes muxitga bog'liq.


Korxonani menejmenti uchun unda ishlovchi ishchilar soni katta ahamiyatga ega. Mulk egasining o'z biznesini boshqaruv darajasi va ishchilar bilan bo'ladigan aloqasi bu omilga bog'liq.

Korxonani bozor sharoitida muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlash maqsadida boshqaruv tizimi – menejmentni marketing bilan bog'lashi muhim. Korxonani boshqaruvi korxonani rejasi bilan bog'liq bo'lib, korxonaning ishlab chiqarish muvaffaqiyati va kutilayotgan foyda darajasiga erishishiga xizmat qiladi. Aynan shunday bog'liqlik boshqaruvni tashkil qilishni nafaqat o'z iste'molchisi va bozoriga, balki barcha bozorlar va iste'molchilarga hamda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan tadbirlarning maqsadga muvofiqligiga yo'naltirilgan mukammal tizim shaklida ifodalashga imkon beradi.

Boshqaruvga yondashishdagi zamonaviy usullarning muhim ahamiyati inson omilini faollashtirish, o'z-o'zini boshqarish va tashabbuskorlikni rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beruvchi yangi tashkiliy tuzilmalarni yaratishda namoyon bo'ladi. Korxonada boshqaruvning ta'siri boshqaruv obyektiga yo'naltirilgan bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish jarayonlari, ishlab chiqarish uskunalari ekspluatatsiya qilish, turli miqyosdagi mehnat kooperatsiyasi va hokazolar boshqaruv obyekti bo'lishi mumkin. Boshqaruv

subyekti esa qoidaga ko'ra, korxonani rahbari yoki boshqaruv obyektlarini maqsadli ravishda boshqarishni amalga oshiruvchi xizmat rahbarlaridir. Boshqaruv subyekti ishlab chiqarish resurslari va asbob-uskunalardan foydalanish siyosatini belgilaydi, ishlab chiqarish vositalarining ishchi kuchi bilan birlashuviga ko'maklashadi. Shu sababli, boshqaruv obyektlari va subyektlari orasidagi aloqa, jumladan, ularning ichki tashkil qilinishi qanchalik mustahkam bo'lsa, bir xil sharoitlarda ishlab chiqarish hamda boshqaruv tizimining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.


Korxonani boshqarishda samaradorlikka erishish uchun, avvalo, boshqaruvning maqsadlari, shuningdek, vositalari va unga erishish usullarini aniq belgilab olish zarur. Yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni eng kam xarajatlar asosida ishlab chiqarish eng ko'p daromad olishni ta'minlab, inqirozga uchrashdan saqlaydi hamda har bir korxonaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Boshqaruvning barcha vazifalari ushbu maqsad amalga oshishiga xizmat qilishi lozim. Boshqaruvning samaradorligiga ko'p jihatdan korxonani oldiga qo'yilgan maqsadlar va bajariluvchi vazifalarning o'zaro munosabatlari yordamida erishiladi, bu quyidagi 5 rasmda aks ettirilgan.



5-rasm. Korxonani boshqarish maqsadlari²³.

²³ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Boshqaruv qarori - boshqaruv faoliyati texnologiyasidagi muhim bo'g'indir. Boshqaruvning maqsad va vazifalarini amalga oshirish ko'p jihatdan qarorlarning to'g'ri qabul qilinishiga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv qarori bir tomondan asosan korxonaning rahbarlari tomonidan amalga oshiriluvchi mantiqiy-fikriy faoliyat bo'lsa, ikkinchi tomondan, emotsional-psixologik xatti-harakatdir. U insonning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarida to'plagan tajribasi, bilimi va fikrlash doirasining chuqurligiga bog'liq bo'ladi. Biz 6-rasmda Boshqaruv qarorlari belgilar bo'yicha tasniflanishini ko'rishimiz mumkin.



6-rasm. Boshqaruv qarorlari²⁴.

²⁴ Maxmudov A.Z. Menejmentda globallashuv jarayoni. "Korxonani boshqarish" Jurnal, 2011 yil №5, 24bet

Bu tamoyillar birinchidan, ishlab chiqarish qatnashchilari orasidagi kelishuvlarni o'rnatib, ikkinchidan, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini oladi hamda boshqaruv mehnatining samaradorligini oshiradi.

Biz bitiruv malakaviy ishimizda xorijiy mamlakatlar tajribasidan korxonalar boshqaruvini ko'rib chiqamiz. Xorijiy davlat AQSH tajribasidan kelib chiqqan holda boshqaruv tizimini mukammallashtirish sohasida quyidagi tendentsiyalar yuzaga kelmoqda: boshqaruv faoliyatining maqsadli tavsifini kuchaytirish; boshqaruvning moslashuvchan tuzilmalarini yaratish va boshqaruv apparatining faoliyatini yaxshilash, jumladan, ortiqcha boshqaruv bo'g'inlarini qisqartirish hisobiga; ishlab chiqarishni boshqarishda jamoalar rolining o'sishi va ularning yuqori natijalarga erishishga yo'naltirilganligi; mehnat faoliyati ijtimoiy sharoitlarining yaxshilanishi. Bu tendentsiyalarga asosan korxonalar boshqaruv organlari tuzilmalarini takomillashtirish yo'nalishlari ham aniqlanib, ularga avvalo sifat ko'rsatkichlari asos qilib olingan. Bu ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Optimallik – tuzilma bo'linmalari o'rtasida eng kam boshqaruv bo'g'inlariga ega bo'lgan holda o'zaro aloqalarni ratsional tarzda o'rnatishdir. Shu sababli ko'p bo'g'inlilikni qisqartirish boshqaruv tizimini takomillashtirish oldiga qo'yiluvchi asosiy talablardan biri hisoblanadi.

- Tezkorlik (operativlik) – barcha funktsional bo'linmalarining, zarur hollarda ishlab chiqarish bo'linmalarining, boshqaruv qarorlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun o'zaro aloqalar aniqlik bilan olib borilishi.

- Ishonchlilik – axborotlarni o'z vaqtida olish va boshqaruv qarorlarini bajaruvchilarga va bajarish joylariga o'z vaqtida yetkazishni ta'minlaydi. Ishonchlilik va tezkorlik joriy va istiqboldagi boshqaruv tizimining samaradorligida muhim turtki hisoblanadi.

- Tejamkorlik – bu, asosan boshqaruv tizimida maksimal samaraga erishgan holda boshqaruv apparati va uning xarajatlarini kamaytirishga, ya'ni ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga erishishdir.

Aytib o'tish kerakki, korxonalar jamoasi va ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish sohasida barcha uchun bir xil yo'l mavjud emas. Mazkur vazifa muayyan sharoit, holat va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda yuzaga keladi va hal qilinadi. Biroq bunda ham o'zgarmas bir qoida mavjud bo'lib, unga ko'ra, har bir o'zgartirish, yaxshilanish va shakl o'zgartirishlar avvaldan o'ylab chiqilishi hamda ilmiy jihatdan asoslab berilishi zarur.

Masalan, hozirgi paytda korxonalarni boshqarishni takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini (ABT) yaratish va amaliyotga kiritish hamda ish vaqt yo'qotilishining oldini olish, uskunalarning bekor turib qolishini qisqartirish, mehnat va moddiy resurslardan oqilona foydalanishga ko'maklashuvchi kompyuter texnikasidan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

Boshqaruv tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri - korxonaning funktsional xizmatlari va bo'limlari faoliyatini ortiqcha tuzilmaviy bo'linmalarni tugatish, xizmat ko'rsatuvchi bo'limlarni optimallashtirish, birlamchi hisobga olish hamda hisob-kitob va boshqa boshqaruv amallarini soddalashtirish yo'li orqali muvofiqlashtirishdir.

Bu yerda ishlab chiqarishni tezkor boshqarishning ko'plab funktsiyalarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish imkonini beruvchi, boshqaruvning yangi texnikasidan, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan turli xil hisob-kitob va tahlil vositalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bu yerda ko'p narsa insonlarning, ayniqsa, menedjerlarning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli ijtimoiy omillarning rivojlanishi, ishlab chiqarish jamoasining ishlab chiqarishni boshqarishdagi roli kuchayishi, ayniqsa, korxonalarga boshqarishning ratsional shakllarini tanlashga keng imkoniyatlar yaratib berilgan hozirgi paytda muhim ahamiyatga ega.²⁵

Zamonaviy texnika vositalari va yangi usullardan tashqari korxonalarni boshqarishda ishlab chiqarish jamoalarida zarur bo'lgan ijtimoiy-psixologik

²⁵ В.Я.Горфинкель, Е.М. Купряков "Экономика предприятий". Учебное пособие. М.: "ВУЗ", 2011 г. 56 бет.

muhitni shakllantirish ham katta ahamiyatga ega. Amaliyot ko'rsatadiki, ijtimoiy-psixologik muhit boshqaruvning natijalari va amaliyligini yo'qqa chiqarishi yoki aksincha kuchaytirishi mumkin.

I-bob bo'yicha xulosalar

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, korxonalar - huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi subyekt bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foyda) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi.

O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalarida turli xil mulkchilik shakliga ega bo'lgan 500 mingta xo'jalik faoliyati yurituvchi subyekt mavjud bo'lib, ulardan qariyb 280 mingini kichik korxonalar hamda mikrofirmalar tashkil etadi.

Korxonani tashkil qilish quyidagi tashkiliy tamoyillar: korxonani tashkil qilish fikrining paydo bo'lishi, korxonalar muassislarini tanlash, taklif qilinayotgan mahsulotga bozordagi talabni o'rganish, korxonalar Nizom jamg'armasini tuzish uchun moliya manbalarini aniqlash, korxonaning ta'sis hujjatlari va biznes-rejasini tayyorlash, davlat ro'yxatidan o'tish, muhr, shtamp va boshqa rekvizitlarni tayyorlash, soliq idoralarida ro'yxatdan o'tish asosida amalga oshiriladi.

Korxonani boshqarish ma'lum bir tamoyillarga asoslanib amalga oshiriladi: mehnat taqsimoti, vakolatlilik va majburiyat, intizom, boshqaruvda yakkaboshchilik va kollegiallik.

Boshqaruv ishlab chiqarishning barcha qatnashchilari va elementlari o'rtasida kelishuvni yo'lga qo'yib, yuzaga kelgan munosabatlarning mazmuni va me'yorini tartibga soladi hamda resurslardan foydalanishning samarali yo'llarini topishga o'z xissasini qo'shadi.

II BOB. KORXONALAR FAOLIYATI RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

2.1. "SREDAZENERGOSETPROEKT" ishlab chiqarishni boshqarishni rivojlantirish tahlili

Energotizimni va elektr tarmoqlar loyihalar sifatini oshirish maqsadida 1962 yilda "ENERGOSETPROEKT" instituti tashkil qilinadi. O'rta Osiyo bo'limi institutning hududiy va maxsus bo'limlaridan biri sifatida shakllanadi. Bu soha bo'yicha hamma izlanish va loyihallash ishlari "Teploelektrproekt" ("Issiqelektrloyiha")dan O'rta Osiyo bo'limi "ENERGOSETPROEKT" (SAESP)ga topshiriladi. Shu bilan birga 269 ta ishchi hodimlar "Issiqlikelektrloyiha"dan bu tashkilotga o'tkaziladi. Shu bo'lim o'ziga 70 ta odamdan iborat Qozog'iston bo'limi ham kiritiladi, ammo 1967 yili mustaqil bo'lim bo'lib chiqib ketadi. 1962 yili tashkilot "ENERGOSETPROEKT" Shota Rustavelli ko'chasiidagi "Teploelektrproekt" binosiga ko'chadi. SAESPning asosiy maqsadi bo'lib, O'rta Osiyoda yagona energotizimni rivojlantirish edi. O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Janubiy Qozog'iston energotizimlari uchun magistral kanallar va aloqa tarmoqlari, dispetcher boshqaruvi va avtomatlashtirilgan boshqarish energotizimlar, energotizimlarni eksplatatsiya qilishni tashkil etish, halokatga qarshi tarmoqlar avtomatikasi, hisoblash markazlari boshqaruvlari va 110, 220, 500 kv kichik stansiyalar bilan ishlash, hamda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bo'yicha ishlar amalga oshirildi.

1962 yildan boshlab bu bo'lim, Afg'oniston, Marokash, Eron va Iroqda o'z ish faoliyatini olib boradi.

1966 yildan esa bo'limni tarkibida ilmiy tadqiqot bo'limlar: tog' tuzilmalarning laboratoriyasi, energotizimlarni optimizatsiyasi, yuqori voltli izolatsiya laboratoriyasi tuziladi.

Obyektlarni loyihallash jarayonini texnik tomonlarni mukammallashtirish uchun ilmiy laboratoriyalarning olib borayotgan tadqiqot ishlari juda zarurdir.

Hozirgi kungacha O'rta Osiyo hududidagi yuqori voltli tarmoqlarni loyihallashtirish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ya'ni 1993 yili "ENERGOSETPROEKT" ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylandi, hozirda tashkilotning to'liq nomi OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT" bo'lib Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Qozog'iston mamlakatlarining barcha milliy energokompaniyalari hamda davlat aksionerlik kompaniyasi "O'zbekenergo" bu tashkilotning ta'sischilari va aksionerlaridir.

AJ "ENERGOSETPROEKT" (SAESP) ochiq aksionerlik jamiyati bo'lib, MDX mamlakatlaridagi boshqa qardosh firmalar bilan birga uyushmaga kiradi. (sobiq ittifoqning energosetproekt instituti asosida tashkil etilgan).

OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT" tashkilotida 1962 yili 269 ta, 1966 yili 749 gacha hodim ishlagan bo'lib, hozirgi paytda esa 234ta hodim o'z faoliyatini olib bormoqda. Tashkilot boshqaruvi bilan quyidagi hodimlar shug'ullanishadi:

- Boshqaruv raisi: Dmitriy Ivanovich Kulbatskiy
- Bosh muhandis: Vadim Genadiyevich Malyuga
- Boshqaruv raisini muovini: Lyudmila Ivanovna Katyuxova

Tashkilotning hamma hodimlari yuqori malakaga va ko'p yillik ish tajribasiga ega bo'lgan texnik va muhandislardir.

1-jadvalda korxonaga to'g'risidagi umumiy ma'lumot ko'rsatilgan.

OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT" tashkilotida 234 ta hodim ishlaydi. Bulardan boshqaruvchilar soni 19, texnik sohasida band bo'lganlar soni 38 ta, muhandisslarning soni 132 ta, yuqori malakali muhandisslar 91 ta hamda yordamchi ishchilar 35 tani tashkil etadi. Ishchilarning o'rtacha yoshi 45 ni tashkil etadi. OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT" tashkilotning umumiy maydoni 1.7 ming m². Bunga laboratoriya, omborxonaga hamda garaj kiradi.

Korxonada to'g'risida ma'lumot²⁶

№	Nomlanishi	O'lchov birligi	Ma'lumot
1.	Tashkilotning nomi		OAJ "SREDAZENERGOSET PROEKT"
2.	Ishchilar	Odamlar soni	
2.1.	Ishchilarni umumiy soni	“	234
2.2.	Boshqaruvchilar soni	“	19
2.3.	Texnik sohasida band bo'lganlar soni	“	38
2.4.	Muhandislarning soni	“	132
2.5.	Yuqori malakali muhandislar (15 yildan ortiq tajribaga ega bo'lgan)	“	91
2.6.	Yordamchi ishchilar	“	35
3.	Ishchilarning yoshi	Yoshi	
3.1.	Ishchilarning o'rtacha yoshi	“	44
3.2.	Boshqaruvchi ishchilarning o'rtacha yoshi	“	48
3.3.	Muhandis ishchilarning o'rtacha yoshi	“	45
3.4.	Texnik ishchilarning o'rtacha yoshi	“	42
4.	Tashkilotning manzili		
4.1.	- Joylashgan joyi:		700070, Toshkent shahar, Sh. Rustaveli ko'chasi, 41
	- Binoni Maydoni:	ming. m ²	1,7
	Omborxonalar	“	0,3
	Laboratoriya	“	1
	Garaj	“	0,4

²⁶ «SREDAZENERGOSETPROEKT» OAJ ma'ruzalar to'plami. T.: 2011 yil, 11 bet.

OAJ “SREDAZENERGOSETPROEKT”ning bo’limlari:

1. Loyiha bosh muhandislar bo’limi. Bo’lim boshlig’i L.N. Dumbur uning qo’l ostida A.G. Drobova, L.V. Abroskina, K.M. Alikbaeva, L.S. Mirxamidova o’z ish faoliyatini olib bormoqdalar. Bo’limning asosiy vazifasi-loyihalashtirish ishlari bo’yicha shartnomalar tuzish, buyurtmachilar bilan ish yuritish, bajarilgan va bajarilayotgan loyihalar bo’yicha ishlarni nazorat qilish, buyurtmachi va loyiha ishlarni amalga oshiruvchi bilan maslahat ishlarni olib borish.

2. Muhandislik tayyorgarlik bo’limi. Bo’lim bosh mutaxasislari L.P. Tribunskiy va T.CH. Te. Bo’limning asosiy vazifasi-loyiha izlanish qidiruv ishlarni amalga oshirishni ta’minlash.

3. Loyiha qidiruv-izlanish bo’limi. Bo’lim boshlig’i S.V. Xlinov. Bo’limning asosiy vazifasi-loyiha izlanish-qidiruv ishlarni turli xil obyektlarda amalga oshirish.

4. Yuqori kuchlanish yo’llari bo’limi. Bo’lim boshlig’i T.I. Papashenko, bosh mutaxassislar V.E. Nikolaychuk, A.Y. Chertkov. Bo’limning asosiy vazifasi-yuqori kuchlanish elektr uzatish yo’llarining mexanik qismini loyihalashtirish.

5. Qurilish bo’limi. Bo’lim boshlig’i M.I. Nakleskin. Bo’limning asosiy vazifasi-loyihalar asosida qurilishni nazorat qilish.

6. Elektr texnik bo’limi. Bo’lim boshlig’i I.A. Rapoport, bosh mutaxasis L.A. Yasikova. Bo’limning asosiy vazifasi-elektr texnik, elektr uskunalarni loyihalashtirish, o’rnatish va ulash masalalarni yechish.

7. Aloqa va boshqaruv vositalarni loyihalashtirish bo’limi. Bo’lim boshlig’i V.V. Pashkovskiy, bosh mutaxassislar K.N. Muhamedov, I.N. Lixacheva, T.I. Shteynberg. Bo’limning asosiy vazifasi- aloqa vositalarni loyihalarda qo’llash va ulanish vositalarni masalarni ko’rish.

8. Elektr tizimlarni loyihallashtirish bo’limi. Bo’lim boshlig’i N.N. Karatayeva, bosh mutaxassislar L.N. Smirnova, I.K. Kiyatkina. Bo’limning asosiy vazifasi-elektr tizimlarni loyihallashtirish.

9. Releyli ximoya va energo tizimlarni holatini boshqarish bo’limi. Bo’lim boshlig’i E.A. Drobov, bosh mutaxassislar U.B. Sharipov, Y.M. Juravlev, L.F.

Chesnokova. Bo'limning asosiy vazifasi-releyli ximoya va avariya halokatiga qarshi avtomatikani, energo tizim holatlar tahlili asosida loyihallashtirish.

10. Qurilishni tashkil etish va smeta hisob bo'limi. Bo'lim boshlig'i T.V. Mints. Smetalarni tuzish, qurilish ishlari bo'yicha smeta hisobotlarni tuzish.

11. Loyihallashtirishni avtomatizatsiyalashtirish va informatika bo'limi. Bo'lim boshlig'i V.V. Kozlov, bosh mutaxassislar L.I. Petuxov, I.P. Avanesova. Bo'limning asosiy vazifasi-tashkilot loyiha bo'limlarni kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlash va maslahat ishlarni olib borish.

12. Yuqori kuchlanish izolyatsiya laboratoriyasi. Bo'lim boshlig'i A.K. Yuldashev. Bo'limning asosiy vazifasi-yuqori kuchlanish uskunalarni sinov tahlil ishlarni olib borish.

13. Loyihalarni chiqarish bo'limi. Bo'lim boshlig'i N.V. Kudrina. Bo'limning asosiy vazifasi-loyihalarni kerakli miqdorda nusxalarni tayyorlash va buyurtmachilar va boshqa tashkilotlarga yuborish.

14. Kadrlar bo'limi. Bo'lim boshlig'i A.M. Azizova. Bo'limning asosiy vazifasi-mutaxassislarni ishga olish, rag'batlantirish va ularni malakasini oshirish.

15. Buxgalteriya bo'limi. Bo'lim boshlig'i T.I. Chistyakova. Bo'limning asosiy vazifasi-tashkilotning moliya, buxgalteriya hisobotlarni olib borish.

16. Reja ishlab chiqarish bo'limi. Bo'lim boshlig'i L.M. Gorodinsova. Bo'limning asosiy vazifasi-loyiha ishlari bo'yicha rejani tuzish va uni nazorat qilish.

17. Ilmiy tadqiqot bo'limi. Bo'lim boshlig'i R.X. Aripov. Bo'limning asosiy vazifasi-ishlab chiqilgan loyihalar buyurtmachilar talabiga mos kelishini nazorat qilish.

18. Administrativ boshqaruv bo'limi. Bu bo'lim qoravulxonadagi ishchilar, haydovchilar, farroshlar, komendant va boshqa xizmatchi ishchilarni o'z ichiga oladi.²⁷

Boshqaruv tizimini 8-ilovada ko'rishimiz mumkin.

²⁷ «SREDAZENERGOSETPROEKT» OAJ ma'ruzalar to'plami, T.: 2011 yil, 37bet.

“SREDAZENERGOSETPROEKT” korxonasi pasportini 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval

Korxonaning pasporti²⁸

№	Ko'rsatkichlar	Ma'lumot
1	Tashkilotning nomi	OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT"
2	Tashkiliy-huquqiy shakli	Aksioner jamiyat
3	Soha	Elektroenergetika
4	Hudud (viloyat, shahar, tuman)	Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani
5	Yuridik manzili	Toshkent shahar, Sh. Rustaveli ko'chasi, 41
6	Telefon	55-42-50, 56-44-64
7	Faks	55-42-52
8	Boshqaruvchi (FIO, bu tashkilotdagi ish staji, boshqaruvchi lavozimidagi ish staji, ta'lim darajasi, O'zning qancha aksiya egaligi to'g'risida ma'lumot.)	Kulbatskiy Dmitriy Ivanovich, 11.09.62 yildan boshlab ishlaydi, boshqaruvchi bo'lib esa 14.03.86 yildan, ta'limi oliy, aksiya miqdori – 1248
9	Umumiy maydon (gektar)	2,8
10	Ishlab chiqarish maydoni (ming. m ² .)	3,3
11	Ulardan foydalanilvotgani (ming. m ² .)	2,3
12	Hodimlar soni	234
13	Xususiylashtirilgan sana	28.05.1993
14	Ustav fondi (so'm)	593 820 000
15	Bitta aksiyani nominal qiymati (so'm)	20 000
16	Aksiya miqdori	29 691
17	Ustav fonding taqsimoti:	
17a	- davlat ulushi (%)	25
17b	- erkin savdo ulushi (%)	17,3
17c	- mehnat jamoasining ulushi (%)	22,7
17d	- xorijiy investor ulushi (%)	35
18	Moliyaviy holati (barqaror, bankrot)	Barqaror
19	Kreditorlik qarzi (ming.so'm)	2 543 094
20	Debitorlik qarzi (ming.so'm)	2 971 826
21	Sof foyda 2011 yil uchun (ming.so'm)	512 108

²⁸ «SREDAZENERGOSETPROEKT» OAJ ma'ruzalar to'plami, T.: 2011 yil, 25 bet.

Biz 2-jadvaldan quyidagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin: OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT"ning ustav fondi 593 820 000 so'mni tashkil etib, aksiyalar 26 691 ta dona, sof foydasi 2011 yil uchun 512 108 ming so'mni tashkil etdi.

3-jadvalda OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT"ning 2012 yildagi aksiya paketi egalari to'g'risida ma'lumoti aks ettirilgan.

3-jadval

OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT"ning 2012 yildagi aksiyalar paketi egalari²⁹

Aksiya paketini asosiy egalari	%	Aksiyani nominal qiymati ming so'mda
НПЦ ЭС и С (Rossiya)	25	148 440,0
NESK (Qirg'iziston)	10	59 380,0
DAK «O'zbekenergo»	25,17	49 480,0
MChJ«ГПАHT-M» (Latviya)	4,9	29 060,0

Bu jadvaldan biz quyidagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin: davlat aksiyadorlik jamiyati "O'zbekenergo" OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT"ning 25.17% aksiya paketini egallamoqda, НПЦ ЭС и С 25%, NESK esa 10% hamda MChJ«ГПАHT-M» 4,9% aksiyallarpaketiga egadir.

OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT"ning asosiy faoliyat sohasi

1. Energotizimlarni rivojlantirish chizmasini ishlab chiqish;
2. Elektrostansiyalarni quvvatini hisoblash chizmalarini tuzish;
3. Yirik sanoat korxonalarining tashqi elektr ta'minlash chizmalarini tuzish;
4. 35 kv va undan baland bo'lgan kichik stansiyalar hamda elektr tokini o'tkazish tarmoqlarining umumiy loyiha-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

²⁹ «SREDAZENERGOSETPROEKT» OAJ ma'ruzalar to'plami, T.: 2011 yil, 44 bet

5. Elektr toki tarmoqlari va kichik stansiyalar himoyalash dasturi va avtomatikasi bo'yicha loyihallarni tuzish;
6. Energotizimlar ishonchliligini va halokatga qarshi avtomatika bilan bog'liq savollarni hal etish;
7. Energotizimlar uchun dispetcherli boshqaruv, telemexanika va aloqa tizimlarni loyihallash;
8. Tog'li tizmalar va yuqori voltli izolyatsiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish;
9. Energetika sohasini rivojlanishning prognozi va texnik-iqtisodiy izlanishlarni olib borish;

Elektrenergetika sohasida SAESPning amalga oshiradigan loyihalar quyidagicha:

Markaziy Osiyo hududida joylashgan quvvati 220-500 kv bo'lgan deyarli barcha mavjud bo'lganelektr tarmog'I obyektlari loyihalari "SREDAZENERGOSETPROEKT" instituti tomonidan loyihallashtirilgan bo'lib, ularning tarkibiga:

- a) Uzunligi 1500 km bo'lgan VL 500kv Markaziy Osiyo mamlakatlarning elektrostansiyalar majmui;
- b) VI 500 kv Mari GRES-500 kvga ega bo'lgan kichik stantsiya Karakul (Turkmaniston)
- c) VL 500 kv Toktogul GRES- 500 kv ga ega bo'lgan Frunze nomidagi kichik stantsiyasi kiradi.³⁰

Shuningdek, SAESP boshqa mamlakatlar bilan ham ishlash tajribasiga ega, bular: Iroq, Afg'oniston, Suriya, va Marokash.

Institutning asosiy hamkorlari:

- OAJ "Issiqlikelektrloyiha"
- OAJ "Gidroloyiha"
- Qurilish firmalar

³⁰ «SREDAZENERGOSETPROEKT» OAJ 2011 yil yakunlari va 2012 yil uchun rejalashtirilgan vazifalar. Toshkent 2012yil, 25 bet.

- Asbob uskunalar bilan ta'minlovchi firmalar
- Xorijiy elektr texnik asbob uskunalarni ishlab chiqaruvchi Siemens, ABB, GEC, Alstom va boshqalar.

2007 yilda kompaniya energetika tizimini 2020 yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish sxemasini ishlab chiqishga kirishdi. Bunda zamonaviy texnologiya va uskunalarni joriy etish bilan bir qatorda, ishlab turgan energetik obyektlarni rekonstruktsiya qilish ishlari davom ettiriladi.

O'zbekiston elektr energetikasini rivojlantirishning strategik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish, elektr energiya bozorini shakllantirish va rivojlantirish;
- Respublika iqtisodiyotini va aholisini sifatli elektr energiyasi bilan ishonchli ta'minlash;
- Energetik korxonalarini texnik jihatdan qayta jihozlash va modernizatsiyalash, ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- Energetik ishlab chiqarishning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish;
- Markaziy Osiyo Birlashgan energetika tizimi doirasida integratsion jarayonlarni yanada rivojlantirish.

Qabul qilingan Dasturlarni bajarish natijasida jamiyatning samarali hayot faoliyatini ta'minlovchi, mamlakat aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va turmush darajasini oshirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratuvchi elektrenergetika sohasining faoliyat ko'rsatishi uchun qulay sharoitlar bunyod etildi.

2.2. “SREDAZENERGOSETPROEKT” OAJni investitsion jozibadorligi tahlili

Investitsiyalar korxonaning ishlab chiqarish salohiyati rivojlantirish va mustahkamlash vositasi sifatida korxonalar xo'jalik yuritish va ishlab chiqarish faoliyatining muhim jihatlaridan biri ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Korxonalarining bu yo'nalishdagi faoliyati investitsion faoliyat deb ataladi hamda “Investitsion faoliyat to'g'risida” gi Qonun

va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Investitsiyalarni shakllantirish va ulardan foydalanish, mamlakat va xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion siyosati asosida amalga oshiriladi. Bu siyosat birinchidan, kapital qo'yilmalarning ustivor yo'nalishlarini, ikkinchidan, ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirish va rivojlantirish, uchinchidan, fan-texnik taraqqiyoti va butun iqtisodiyotning rivojlanishini belgilab beradi. Investitsiya loyihasini tayyorlash va amalga oshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- investitsiyaviy g'oya(fikr)ni shakllantirish;
- g'oyaning dastlabki asoslanishi;
- loyihada ko'zda tutilgan texnik qarorning tahlili;
- sertifikat talablarining bajarilishini tekshirish;
- investitsiya loyihasi bo'yicha davlat boshqaruv idoralari bilan kelishuv yuzaga keltirish;
- axborot memorandumini tayyorlash.

Yuqorida ko'rsatilganlarni amalga oshirgandan so'ng loyihani ishlab chiqish va texnik-iqtisodiy asoslab berish (tushuntirish xatidan to investitsion mo'ljallarning maqsad va vazifalari hamda kutilayotgan natijalar aks ettiriluvchi loyiha-smeta hujjatlarigacha) zarurati tug'iladi.

Investitsiya faoliyati bo'yicha OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT" 2011 yilda moliyalashtirilgan barcha manbalari hisobiga 159,3 mlrd. so'm kapital mablag'lar o'zlashtirdi, shu jumladan kompaniyaning o'z mablag'laridan – 133,9 mlrd. so'm, xorijiy kreditlardan 14,14 mln. AQSh dollari o'zlashtirildi.³¹

Kompaniya tomonidan Investitsiya loyihalarini yuritishda quyidagilar nazarda tutiladi:

- bug'-gaz qurilmalari (PGU) negizida elektr va issiqlik energiyasini aralash ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalar asosida loyihalarni tuzish;
- kichik GESlarni loyihalarini ishlab chiqish va amaldagi ko'mirda ishlovchi elektrostantsiyalarda gidroenergo resurslarni rekonstruktsiya jadvalini

³¹ «SREDAZENERGOSETPROEKT» OAJ 2011 yil yakunlari va 2012 yil uchun rejalashtirilgan vazifalar.

tuzish va yoqilg'i-energetika balansida qattiq yoqilg'i miqdorini ko'paytirish uchun maslahatlar berish;

- energiya tanqis bo'lgan energo bog'lamlarga elektr quvvati va energiyani uzatish uchun tizimaro 220-500 kV elektr uzatish liniyalarini va tayanch nimstantsiyalarni, shuningdek yuqori kuchlanishli - 110 kV yopiq nimstantsiyalar loyihalarini ishlab chiqish;

- maishiy sektor iste'molchilarini zamonaviy elektron elektr hisoblagichlar bilan jihozlangan va elektr energiyasini tijoratli hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimi (ASKUE)ni tashkil etgan holda elektr energiyasining iste'molini hisobga olish tizimini modernizatsiyalash loyihasini tuzish.

Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Xalqaro hamkorlik sohasida kompaniyaning bosh strategik vazifalari quyidagilardan iborat:

- elektr energetikasi obyektlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, qurish va kengaytirish loyihalarini ishlab chiqarish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish;

- texnik innovatsiya, energiyani tejash va energetik ishlab chiqarishning atrof muhitga ekologik ta'sirini pasaytirish sohasida, shu jumladan Kioto bayonnomasining amalga oshirilishini hisobga olgan holda, hamkorlik qilish;

- MDH doirasida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, Markazii Osiyo mintaqasida elektr energiyasi va quvvat bozorini shakllantirish yo'lida me'yoriy-huquqiy bazani uyg'unlashtirish.

Kompaniyada sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. "Toshkent IESni modernizatsiyalash" loyihasini amalga oshirish uchun quvvati 370 MVt bo'lgan bug'-gaz qurilmasini loyihalash ishlari boshlab yuborildi. Qurilishni moliyalashtirish Yaponiya xalqaro hamkorlik banki va O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondining imtiyozli kredit resurslarini jalb qilgan holda amalga oshirilmoqda.

Navoiy IESni huddi shunday modernizatsiyalash mo'ljallanmoqda. Loyihaning dastlabki texnik iqtisodiy asoslanishi (TIA) tasdiqlandi, "qul-fkalitgacha" shartida quvvati 370-400 MVt bo'lgan bug'-gaz qurilmasini qurishga bosh pudratchini tanlash uchun xorijiy kompaniyalarni jalb etish masalasi ishlab chiqilmoqda.

Energiya ishlab chiqaruvchi quvvatlarni qurish loyihalarni Kioto bayonnomasining Sof rivojlanish mexanizmini qo'llagan holda amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

Quvvati va foydali ish koeffitsienti an'anaviy bug'-turbina bloklarinigiga nisbatan ancha katta bo'lgan yuqori samarali bug'-gaz qurilmalari negizida elektr energiyasi va issiqlikni aralash ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yiliga 350 mln kub metrdan ko'proq tejamkorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Bug'-gaz qurilmasini qo'llash, shuningdek, gaz turbinasidan yonish kamerasining konstruktiv hususiyatlari va samarali yonish rejimi evaziga azot oksidlari emissiyasini 1,5 - 2,0 marotaba qisqartiradi, atmosferaning ifloslanish darajasini mavjud vaziyatga nisbatan deyarli 2 marotaba pasaytiradi.

Kioto bayonnomasining Sof rivojlanish mexanizmi orqali, shuningdek, "Tolimarjon va Sirdaryo IESda detander-generatorlarni o'rnatish" va "Chirchiq-Bo'zsuv traktida 8 MVt quvvatli Kamolot GESni qurish" loyihalarini ham amalga oshirish nazarda tutilmoqda.

OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT" tashkiloti tomonidan tuzilgan loyihalari asosida hamda Islom taraqqiyot banki (ITB)ning kredit resurslarini jalb qilgan holda uzunligi 218 km bo'lgan "Sirdaryo IES-So'g'diyona NS" 500 kV HL qurilishi amalga oshirilmoqda. ITB bilan birgalikda uzunligi 216 km bo'lgan "So'g'diyona NS – Tolimarjon IES" uchastkasida 500 kV HLni qurish masalasi ishlab chiqilmoqda, "Surhon NS da AT-2 bilan Guzar NS – Surhon NS" 500 kV HLni (197 km) qurish boshlandi.

Toshkent shahrida quyidagi obyektlar kompleksini qurish amalga oshirilmoqda:

- 220 kV elektr uzatish yo'llar (EUY) bilan 220 kV Keles NS (2*200 MVA);
- "Toshkent IES – Keles NS" 220 kV EUY;
- 110 kV EUY bilan 110 kV Navoiy almashlab ulash punkti;
- 110 kV kabel elektr uzatish yo'li (12 km) bilan 110 kV Saiylgoh NS (2*63 MVt).³²

Uskunalar va materiallarni yetkazib berish uchun loyihani ShHT liniyasi bo'yicha Xitoy Xalq Respublikasi Hukumatining qarz mablag'larini jalb qilgan holda moliyalashtirish nazarda tutilmoqda.

Yoqilg'i-energetik balansida ko'mir ulushini oshirish maqsadida yil bo'yi ko'mir yoqishga qozonlarni o'tkazish bilan Yangi Angren IESni rekonstruktsiya qilish bo'yicha loyihalar tuzilgan. Xorijiy kapital mablag'larini jalb qilish bilan loyihani amalga oshirish mo'ljallanmoqda.

Kompaniya energetika obyektlarini va maishiy sektori iste'molchilari qurilmalarini hisobga oluvchi zamonaviy elektron priborlari bilan jihozlash uchun elektr energiyasini hisobga olish tizimini modernizatsiya qilishni boshladi. Elektron elektr hisoblagichlar joriy etilishiga qarab ularning asosida elektr energiyasini tijorat hisobga oluvchi avtomatlashtirilgan tizimi – ASKUEni tashkil etish mo'ljallanmoqda.

Ishlarning hisoblangan narxi 362,8 mln. AQSh dollari ekvivalenti miqdorida baholanmoqda, ulardan 75% gacha miqdori horijii Investitsiyalar hisobiga moliyalash mo'ljallanmoqda.

Kompaniya Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), Shanhay hamkorlik tashkiloti (ShHT) doirasida integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda faol qatnashadi.

MDH doirasida, MDH elektroenergetik Kengashi tarkibida MDH va Baltiya davlatlarining energetika tizimlari, kelajakda esa boshqa Yevropa davlatlarining energetika tizimlarini birgalikda ishlashi masalalari ko'rib chiqilmoqda.

³² «SREDAZENERGOSETPROEKT» OAJ 2011 yil yakunlari va 2012 yil uchun rejalashtirilgan vazifalar. Toshkent 2012yil, 69 bet

O'zbekiston energetika tizimi ehtiyojlari uchun har yili Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va boshqa davlatlardan o'nlab million dollarga uskunalar, butlovchi va ehtiyot qismlar, materiallar va hom ashyo etkazib berishi amalga oshirilmoqda.

2.3. Korxonalar faoliyatini rivojlanishining hozirgi holati tahlili

O'tgan davr mobaynida, ayniqsa, mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki yillarida yengib o'tishimizga to'g'ri kelgan ulkan qiyinchiliklar, muammolar, tahdid va sinovlarga qaramasdan O'zbekiston iqtisodiyoti 21 yil davomida qariyb 3,4 barobar, yalpi ichki mahsulot aholi jon boshiga 2,5 barobar, o'rtacha ish haqi 14 barobar o'sganini, bu davrda mamlakatimiz aholisi 8 million 244 ming kishiga ko'payib, hozirgi kunda 28,5 million nafarni tashkil etishini inobatga oladigan bo'lsak, bunday ulkan natijalarga erishganimizni, chindan ham tasavvur qilishning o'zi qiyin.

Aholining yalpi daromadlari amaldagi hisob-kitoblar bo'yicha 8,6 marta oshdi. Ayni paytda bu ko'rsatkichning 47 foizi biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan mulk shakllari va tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlardir.

Ekspertlar tomonidan bildirilgan xulosalarga ko'ra, o'rtacha darajadagi barqaror pul daromadlariga ega bo'lgan uy ho'jaliklarining 2011 yil yakunlari bo'yicha 60 foizni tashkil etgan.³³

Bizning bugungi kundagi eng muhim ustuvor yo'nalishlarimiz chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, jadal va mutanosib rivojlanishni ta'minlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, investitsiyaviy ishchanlik muhitini shakllantirish va chuqurlashtirish, yuksak texnologiyalar asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh

³³ Statistika to'plam O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiyava ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlarini Toshkent: "O'zbekiston" 2011, 48 bet

mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish, eksport sohasidagi mavqeimizni mustahkamlashdan iboratdir.

Milliy iqtisodiyot tarmoqlari rivojining asosiy ko'rsatkichlarini ko'rib chiqamiz. Bulardan YAIMning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi 4-jadvalda ko'rish mumkin.

4- jadval

Yalpi ichki mahsulotning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibi ³⁴

(foiz hisobida)

Ko'rsatkichlar	2010 yil ulushi	2011 yil kutilayotgan ulushi	2012 yilda prognoz ulushi
Yalpi ichki mahsulot	100,0	100.0	100.0
Sanoat	24	24,2	24,4
Qurilish	6,4	6,5	6,5
Transport va aloqa	11,4	11,7	12,4
Savdo	9,0	8,8	9,6
Boshqalar	49,3	49,4	47,1

Iqtisodiyot tarmoqlarini sanoat asosida tashkil etish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha 2000-2010 yillarda qabul qilinganchora-tadbirlar mamlakatimizda sanoatning avtomobilsozlik, neft va gaz-kimyoy, temir yo'l, mashinasozligi kabi yangi tarmoqlarining yaratilishi 2010 yilga kelib sanoat mahsulotlari umumiy hajmining o'sishi hamda YaIM tarkibida sanoatning ulushi 24 foizga yetishini ta'minladi. Ishlab chiqarish hajmining 2011 yildagi barqaror o'sishi tufayli yalpi ichki mahsulotdagi qurilish 6.5, transport va aloqa 11.7, savdo 8.8 ulushlarni tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarish hajmi izchil o'sib bormoqda. Sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish sur'atlari bo'yicha o'sishni quyidagi 5-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

³⁴ O'zbekiston Respublika Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish sur'atining o'sishi³⁵

(foiz hisobida)

Ko'rsatkichlar	1990 yil amalda	2000 yil amalda	2011 yil Kutilish ulushi
Sanoat - jami	100	123,6	3,2 marta
Yoqilg'i sanoati	100	127,3	2,2 marta
Qora metallurgiya	100	58,8	1,6 marta
Rangli metallurgiya	100	107,4	116,1
Kimyo va neft-kimyo sanoati	100	97,5	3,1 marta
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati	100	142,2	13 marta
Qurilish materiallari sanoati	100	58,4	1,5 marta
Yengil sanoat	100	159,2	4 marta
Oziq-ovqat sanoati	100	150	6,4 marta
Boshqa sohalar	100	162,6	6,2 marta

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yillik hajmi 2010 yilda 2011 yilga nisbatan 3.2 barobar o'sishi kutilmoqda. Yoqilg'i sanoati 2.2 barobar, qora metallurgiya 1.6 barobar o'sishi kuzatilmoqda. Rangli metallurgiya sanoati 2010 yilda 2011 yilga nisbatan 116.1 foiz izchil o'sib bormoqda. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2010 yil 2011yilga nisbatan 13 barobar o'sdi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda avgomobilsozlik, neft-gazkimyo sanoati, neftgaz mashinasozligi, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, temir yo'l mashinasozligi, maishiy elektrotexnika, farmasevtika, zamonaviy oziq-ovqat sanoati va yengil sanoat kabi bir qator mutlaqo yangi sanoat tarmoqlari yaratildi.

Neft qazib chiqarish va neftni qayta ishlash sanoatining yaratilishi mamlakatimizning energetik xavfsizligini ta'minladi. Energetika mustaqilligini ta'minlash hamda neft va gazni qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish dasturi doirasida, istiqlol yillarida eng zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan chet el kompaniyalari bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi («Teknip», Fransiya) va Shurtangazkimyo majmuasi («ABB») barpo etildi, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi to'liq rekonstruktsiya qilindi.

³⁵ O'zbekiston Respublika Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Qayta ishlash sanoatida sanoat mahsulotlari ayrim turlarining ishlab chiqarilishi xususan, neft, gaz, oltin qazib olish, rangli metallurgiya, kimyo va neft-kimyo sanoatini jadal rivojlantirish uchun davlat barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Natijada chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi va O'zbekiston sanoatining tarmoq tarkibi ancha diversifikatsiya qilindi va mutanosiblashdi. Yengil va oziq-ovqat sanoatining asosiy ishlab chiqarilgan mahsulotlarini 6-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

6-jadval

Yengil va oziq-ovqat sanoatining asosiy ishlab chiqargan mahsulotlari.³⁶


Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2000 yil	2010 yil	2011 yil kutilayotgan
Avtomobillar	dona	31285	220313	258963
Shu jumladan:				
Yengil avtomobillar	dona	30700	217733	235698
Avtobuslar	dona	483	1268	1352
Yuk avtomobillari	dona	102	1312	1400
Televizorlar	dona	29315	96700	97800
Kompyuterlar	dona	0	124000	135478
Shakar	tn.	10169	286055	291556
Osh tuzi	tn.	28367	58613	61256
Alkogolsiz ichimliklar	ming dal.	17508	42968	48235
Pahtadan ip-kalava	Ming tn.	135,1	225,6	325,6
Gilamlar va gilam mahsulotlari	Ming kv.m.	1594	21650	28563
Dori-darmon vositalari	million sum	5219,2	160147	165896
Mebel	million sum	12578,6	160279	173256

2011yilda 2000 yilga nisbatan yengil avtomobillar ishlab chiqarish 7,1 barobar, avtobuslar - 2,6 barobar va yuk avtomobillari tayyorlash - 12,9 barobar oshdi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida avtomobilsozlik sanoati alohida o'rin egallamokda. Bu tarmoq Asaka shahrida AQShning «Jeneral Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan, Toshkent shahrida Germaniyaning dunyoga mashhur «Daimler Benc» va Samarkand shahrida Yaponiyaning «Isuzu» kompaniyalari bilan hamkorlikda avtobuslar ishlab chiqaradigan hamda Samarkand shahrida Germaniyaning «MAN» kompaniyasi

³⁶ O'zbekiston Respublika Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

bilan tashkil etilgan yuk avtomobillari ishlab chiqaradigan yangi zavodlarni o'z ichiga oladi.

Mustaqillik yillarida xizmat ko'rsatish sohasi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng istiqbolli va jadal rivojlanib borayotgan tarmog'iga aylandi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 21 maydagi «O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida»gi PK-640-sonli qarori³⁷ bilan tasdiqlangan dasturning qabul qilinishi xizmatlarning jadal o'sib borishida muhim bosqich bo'ldi. Biz 7-rasmda YaIMda xizmat ko'rsatish sohasining dinamikasini ko'rishimiz mumkin.



7-rasm. YaIMda xizmat ko'rsatish sohasining ulushi (foiz)³⁸

Mamlakatimizda 2000-2011yillarda xizmat ko'rsatish hajmi 2,5 barobar oshdi. Xizmat ko'rsatish sohasida zamonaviy xizmat turlari ulushining ortishi bilan bog'lik ravishda sifat o'zgarishlari kuzatilmoqda. Yuqorida zikr etilgan dasturni amalga oshirish yillarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari yiliga o'rtacha 132,7

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 21 maydagi «O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida»gi PK-640-sonli qarori

³⁸ O'zbekiston Respublika Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

foizlik o'sish sur'ati bilan 3,1 barobar o'sdi. Telekommunikatsiya tarmoqlari, aloqa kanallari, Internet tarmog'iga jamoaviy ulanish shohobchalari, raqamli texnologiyalar bilan jixozlangan axborot infratuzilmalari tobora kengayib bormoqda.

Milliy iqtisodiyotimizda korxonalar rivojlanishining hozirgi holatini ko'rib chiqamiz. Avvalo mulkchilik shakli bo'yicha YaIM ishlab chiqarish tarkibi 7-jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

7- jadval

Mulkchilik shakli bo'yicha YaIM ishlab chiqarish tarkibi³⁹

(foiz)

Ko'rsatkichlar	2000 yil	2010 yil	2011 yil kutilish ulushi
Yalpi ichki mahsulot jumladan	100	100	100
Nodavlat mulkchilik shundan			
Fermer xo'jaliklari	72,6	81,7	82,5
Xo'jalik birlashmalari	1,9	6,5	7,2
Qo'shma korxonalar	17,4	27,4	29,3
Davlat mulkchiligi	5,2	14,2	15,7
	27,4	18,3	19,7

Mustaqillik yillarida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish tarkibida mulkchilik shakllari bo'yicha tub o'zgarishlar ro'y berdi. Mahsulot ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlar tarkibida nodavlat sektor asosiy o'rinni egalladi. Nodavlat sektorning ulushi 2000 yildagi 58,4 foizdan 2011 yilda 82,5 foizga yetdi, jumladan, xo'jalik birlashmalarni ulushi – 29,3 foiz, qo'shma korxonalar hissasi – 15,7 foiz, xususiy fermer xo'jaliklari ulushi – 7,2 foizni tashkil etdi.

Bozor islohotlarini amalga oshirish yillarida qariyb 31 mingta davlat korxonasi xususiy lashtirildi hamda mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyatiga qarab, ular aksiyadorlik jamiyatlari (21,5 foiz) va mulkchilikning boshqa nodavlat korxonalar shakli (78,5 foiz) sifatida qayta tashkil etildi.

YaIMda Xususiy sektor ulushini esa 8- jadvalda ko'rib chiqamiz.

³⁹ O'zbekiston Respublika Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

YaIMda Xususiy sektor ulushi ⁴⁰

(foizda)

	2000 yil	2010 yil	2011 yil
YAIM	72,6	81,7	85,9
Sanoat	63,9	91,0	94,8
Qishloq xo'jaligi	99,1	99,9	111,1
Qurilish	81,2	89,6	90,6
Transport	30,7	56,0	59,5
Aloqa	82,4	96,1	100,1
Chakana savdo aylanmasi	96,8	99,9	116,4
Pullik xizmat	57,1	81,7	116,1
Tashqi savdo	70,4	79,4	101,1
Bandlik	75,9	79,1	89,1

2011 yilda iqtisodiyotning xususiy sektorining ulushi quyidagicha bo'ldi: mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarishda 85,9 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 94,8 foiz, qishloq xo'jaligida 111,1 foiz, qurilish-pudrat ishlarining umumiy hajmida 90,6 foiz, transportda 59,5 foiz, savdo va umumiy ovqatlanishda 116,4 foizni tashkil etdi.

Davlat mulkining xususiylashtirilishi va kichik biznes rivojining rag'batlantirilishi natijasida O'zbekistonda yangi ijtimoiy qatlam - mulkdorlar sinfi paydo bo'ldi. Bu qatlamning umumiy soni qariyb 6,5 million kishini, jumladan, aksiyadorlar 1,4 million, xususiy fermer xo'jaliklari egalari 80,6 ming, shuningdek, dexkon xo'jaliklari va daromad keltiradigan boshqa mulk shakllari 4,8 million nafarni tashkil etadi.⁴¹

Xususiylashtirish tufayli qimmatli qog'ozlar va mulk bozori kabi yangi bozorlar paydo bo'lib, ko'p tarmoqli iqtisodiyotning shakllanishi va bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning asosi bo'ldi. Xususiylashtirish jarayonida nodavlat mulkchilik obyektlari va yangi korxonalar tashkil etish dinamikasini 9- jadvalda ko'rishimiz mumkin.

⁴⁰ O'zbekiston Respublika Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

⁴¹ Statistik to'plam O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiyava ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlarini Toshkent: "O'zbekiston" 2011, 116 bet

Xususiy lashtirish jarayonida nodavlat mulkchilik obyektlari va yangi korxonalar tashkil etish dinamikasi⁴²

Yillar	Xususiy lashtirilgan barcha korxonalar va obyektlar, dona	Jumladan:	
		Aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan, foiz	Xususiy mulk qilib sotilgan, foiz
2000	372	40,8	59,2
2001	1238	18,3	81,7
2002	1800	12,4	87,6
2003	1452	5,2	94,8
2004	1228	2,3	97,7
2005	980	0,3	99,7
2006	673	2,8	97,2
2007	631	0	100
2008	392	0	100
2009	135	0	100
2010	96	0	100
2011	112	0	100
Jami	30843	21,5	78,5

2000-2011 yillar davomida ro'yhatdan o'tgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni qariyb 2 barobar oshdi. 2011 yilda O'zbekiston aholisining har 1000 nafariga 15,2 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektga to'g'ri keldi.⁴³

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish sur'atlari 10- jadvalda aks ettirilgan.

10- jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish sur'atlari⁴⁴

(foiz)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, foiz	2000 yil	2005 yil	2011 yil
YalMda	31,0	38,2	52,5
Sanoatda	12,9	10,0	21,1
Ish bilan band bo'lganlarning umumiy sonida	49,7	64,8	74,3
Ekspordda	10,2	6,0	13,6

⁴² O'zbekiston Respublika Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

⁴³ Statistik to'plam O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiyalar ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlar Toshkent: "O'zbekiston" 2011, 135 bet

⁴⁴ O'zbekiston Respublika Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Kichik tadbirkorlik respublikamizni iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omillaridan biriga aylandi va uning 2000-2011 yillar davomidagi asosiy rivojlanish ko'rsatkichlari quyidagi tendensiyalar bilan ajralib turadi:

- yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'sib, 2000 yildagi 31 foizdan 52,5 foizga yetdi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish bilan band aholining iqtisodiyotda umumiy band bo'lganlar sonidagi ulushi ortib, 2000 yildagi 49,7 foizdan 74,3 foizga yetdi;

- mazkur tarmoqning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi hissasi 12,9 foizdan 21,1 foizga o'sdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning umumiy eksport hajmidagi o'sishi 3,4 foizni tashkil etdi va 2000 yildagi 10,2 foizdan 13,6 foizga ko'tarildi;

- kichik tadbirkorlik tarmog'ining tarkibiy tuzilishi unda kichik sanoat korxonalari ulushining oshishi hisobidan yaxshilandi. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2011 yilda 7295,0 milliard sumlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va bu 2000 yildagidan 9,7 barobar ko'pdir;

- avtomobilsozlik, traktorsozlik va boshqa tarmoqlar uchun mahaliyilashirilgan butlovchi buyum va ehtiyot qismlarni ishlab chiqarish bo'yicha faoliyat ko'lamini kengaytdi.

II-bob bo'yicha xulosalar

Bozor islohotlarini amalga oshirish yillarida qariyb 31 mingta davlat korxonasi xususiyilashirildi hamda mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rnini va ahamiyatiga qarab, ular aksiyadorlik jamiyatlari (21,5 foiz) va mulkchilikning boshqa nodavlat korxonalari shakli (78,5 foiz) sifatida qayta tashkil etildi. Xususiy sektor 2011 yilda 82,5 foizga yetdi, jumladan, xo'jalik birlashmalarni ulushi – 29,3 foiz, qo'shma korxonalar hissasi – 15,7 foiz, xususiy fermer xo'jaliklari ulushi – 7,2 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ya'ni 1993 yili "ENERGOSETPROEKT" ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylandi, hozirda tashkilotning to'liq nomi OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT" bo'lib, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Qozog'iston mamlakatlarining barcha milliy energokompaniyalari hamda davlat aksionerlik kompaniyasi "O'zbekenergo" bu tashkilotning ta'sisчилari va aksionerlaridir. OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT" tashkilotida hozirgi paytda 234ta hodim o'z faoliyatini olib bormoqda.

OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT" ning asosiy faoliyat sohalari:

- energiya tizimlarini rivojlantirish chizmasini ishlab chiqish;
- elektr stansiyalarni quvvatini hisoblash chizmalarini tuzish; yirik sanoat korxonalarining tashqi elektr ta'minlash chizmalarini tuzish;
- 35 kv va undan baland bo'lgan kichik stansiyalar hamda elektr tokini o'tkazish tarmoqlarining umumiy loyiha-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- elektr toki tarmoqlari va kichik stansiyalar himoyalash dasturi va avtomatikasi bo'yicha loyihallarni tuzish;
- energiya tizimlar ishonchliligini va halokatga qarshi avtomatika bilan bog'liq savollarni hal etish;
- energiya tizimlar uchun dispetcherli boshqaruv, telemexanika va aloqa tizimlarini loyihallash;
- tog'li tizimlar va yuqori voltli izolyatsiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish;
- energetika sohasini rivojlanishning prognozi va texnik-iqtisodiy izlanishlarni olib borish;

Investitsiya faoliyati bo'yicha OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT" 2011 yilda moliyalashtirilgan barcha manbalari hisobiga 159,3 mlrd. so'm kapital mablag'lar o'zlashtirdi, shu jumladan kompaniyaning o'z mablag'laridan – 133,9 mlrd. so'm, xorijiy kreditlardan 14,14 mln. AQSh dollari o'zlashtirildi.

III-BOB. MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. "SREDAZENERGOSETPROEKT" OAJning samaradorligini oshirish yo'llari

Korxonada menejment samaradorligini baholash- kompaniyani boshqarishni va uni rivojlantirish strategiyasini baholashni nazarda tutadi. Oliy rahbariyatning sifati va ishonchliligi kompaniya muvaffaqiyat qozonishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuningdek bunda samarali tijorat faoliyatini olib borishga qodir tayyorgarlikka ega malakali operatsion xodimlarning borligi muhim rol o'ynaydi.

Korxonada samaradorligi – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan korxonada faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda ishlab chiqarish samarasini, pul shaklida esa iqtisodiy samarani tavsiflaydi.

Ishlab chiqarish samaradorligi har bir korxonada faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. U xo'jalik yuritishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlari hamda olingan natijalar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Korxonada samarali ishlashi bu, mo'ljallangan (rejalashtirilgan) foydani olish, noishlab chiqarish xarajatlari va yo'qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashni anglatadi.

Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda bir muncha tor ma'noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo'jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar(ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Xarajatlar qanchalik kam bo'lsa (mahsulot sifatiga ta'sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farqni yo'qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o'zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o'sishi, aholi sog'lig'ining yaxshilanishi va umr ko'rishining uzayishida aks ettiriladi.⁴⁵

Samaradorlik chora sifatida ko'plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo'jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxonada o'zining xo'jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.

OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT"ning iqtisodiy, ishlab chiqarish samaradorligi hamda ijtimoiy samaradorlikni ko'rsatkichlar orqali tahlil qilamiz. Birinchi navbatda OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT"NING asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tanishib chiqamiz. (11- jadval)

11-jadval

"SREDAZENERGOSETPROEKT" OAJning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar⁴⁶

Ko'rsatkichlar:	2009	2010	2011	Farqi	%
Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum	1 571 582	3 449 223	5 588 947	2 139 724	62%
Sotilgan mahsulotning tan narxi	1 069 005	2 077 646	3 494 897	1 417 251	68%
Yalpi foyda	502 577	1 371 577	2 094 050	722 473	53%
Berilgan vaqt mobaynida xarajatlar	422 832	702 579	1 156 769	454 190	65%
Boshqaruv xarajatlari	196 847	360 625	580 166	219 541	61%
Sof foyda	92 266	554 424	792 710	238 286	43%
Asosiy fondlar	210 704	188 021	236 471	48 450	26%
Debitorlik qarzdorlik	302 916	1 033 080	2 202 672	1 169 592	113%
Barcha joriy aktivlar	473 200	1 412 190	2 318 506	906 316	64%
Kreditorlik qarzdorlik	429 258	863 504	1 046 805	183 301	21%

⁴⁵ G'oyibnazarov B.K, Akramova N.I."Korxonada iqtisodiyoti" ma'ruzalar matni, T.: "TDIU" 2010 yil, 56 bet

⁴⁶ OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT" institutining 2011 yil yakunlari va 2012 yil uchun rejalashtirilgan vazifalar. Toshkent 2012 yil, 35 bet.

Korxonaning mahsulot sotishdan tushgan sof tusuhumi 2011 yilda 5 588 947 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan 2010 yilga qaraganda 2 139 724 ming so'm o'sish kuzatildi, bu ko'rsatkich 62 % o'sganini ko'rsatmoqda. Sof foyda 2011 yilda 792 710 ming so'mni tashkil etib, 2010 yilga qaraganda 43 %ga oshdi. Debitorlik qarzdorlik 2011 yilda 2 202 672 ming so'mni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 113% ga oshdi, bu birinchi navbatda buyurtmachilar bajarilgan loyiha izlanish ishlari uchun vaqtida to'lamaganligini ko'rsatadi.

Biz 12-jadvalda "SREDAZENERGOSETPROEKT" OAJning bo'limlar bo'yicha ishlab chiqarilgan ishning taqsimotini ko'rishimiz mumkin.

"SREDAZENERGOSETPROEKT" OAJning energiya tizimlar bo'limi, izlanish bo'limi, tarmoqlar bo'limi, elektrotexnika bo'limi, releyli himoya va avtomatika tizimi holatini boshqarishbo'limi, aloqa bo'limi, qurilish bo'limi, smetalar bo'limi, yuqori kuchlanish izolyatsiya laboratoriyasi bo'limi, muhandisslik tayyorgarlik sektori bo'limi, loyihalar bosh muhandisslik bo'limlari bo'yicha ishlab chiqarilgan ishning taqsimoti 12-jadvalda tahlil qilingan.

Bo'limlar bo'yicha ishlab chiqarilgan ish taqsimoti jadvalidan bizga ma'lumki, 2011 yilda tarmoqlar bo'limi 1129,8 mln.so'm hamda izlanish bo'limi 800,1 mln so'm eng ko'p izlanish loyiha qidiruv ishlarni olib borishgan. O'rtacha ish haqi ko'rsatkichi bo'yicha tahlil qilsak, Loyihalar bosh muhandisslar bo'limi eng ko'p ish haqi oladilar, bu ko'rsatkich 2010,9 ming so'mni tashkil etadi, ikkinchi bo'lib muhandisslik tayyorgarlik sektori 1852.6 ming so'm, bundan keyin tarmoqlar bo'limi 1476.4 ming so'm ish haqi olishadi. Eng kam o'rtacha ish haqi esa yuqori kuchlanish izolyatsiya laboratoriyasi bo'limiga to'g'ri keladi, ya'ni bu ko'rsatkich 558.6 ming so'mni tashkil etadi. Bo'limlar bo'yicha ishchilar soni 2009-2011 yilga qadar oshib, hozirda 153 ta hodimni tashkil etadi. Eng ko'p hodimlar soni izlanish bo'limida o'z ish faoliyatini yuritishadi, ya'ni 37 ta hodimdan iborat. Muhandislik tayyorgarlik bo'limida eng kam ishchi hodim o'z ish faoliyatini olib boradi, 2 ta hodimdan iborat.

12- jadval

“SREDAZENERGOSETPROEKT” OAJning bo’limlar bo’yicha ishlab chiqarilgan ishning taqsimoti.⁴⁷

Ming.so’m


Bo’limlar	Bajarilgan ishlarni umumiy, mln. so’m			O’rtacha ish haqqi, ming so’m			Ishchilar soni		
	2009	2010	2011	2009	2010	2011	2009	2010	2011
Energiya tizimlar bo’limi	220,6	241,4	211,9	1002,9	1209,6	1323,5	8	7	5
Izlanish bo’limi	720,5	741,6	800,1	658,3	752,6	894,8	30	34	37
Tarmoqlar bo’limi	945,5	959,2	1129,8	1023,6	1256,2	1476,4	19	19	19
Elektrotexnika bo’limi	945,7	967,7	648,8	956,3	1125,5	1348,5	20	23	15
RZAU bo’limi	290,3	318,9	619,7	658,3	745,3	841,3	9	10	23
Aloqa bo’limi	475,3	481,7	500,1	1023,3	1103,9	1201,2	13	13	13
Qurilish bo’limi	478,3	529	468,2	763,2	879,3	974,5	14	14	15
Smetalar bo’limi	310,2	317,7	297,9	869,3	992,3	1028,5	9	9	9
VI laboratriyasi	45,9	62,5	25,8	325,6	486,3	558,6	8	8	7
Muhandislik tayyorgarlik sektori	145,6	153,7	118,9	1546,3	1652,2	1852,6	3	2	2
Loyihalar Bosh Muhandislar bo’limi	589,6	597,3	644,9	1689,3	1856,2	2010,9	8	7	8
Jami	5167,5	5370,7	5458,1	10516,4	12059,4	1114,7	141	146	153

⁴⁷ OAJ“SREDAZENERGOSETPROEKT” institutining 2011 yil yakunlari va 2012 yil uchun rejalashtirilgan vazifalar. Toshkent 2012yil, 28 bet

2012 yildagi korxonada faoliyat olib borayotgan hodimlarni kategoriyasi bo'yicha tahlilni biz 1-diagrammada ko'rishimiz mumkin.⁴⁸

1-diagramma

2012 yildagi hodimlarni kategoriyasi bo'yicha tahlil⁴⁹



OAJ “SREDAZENERGOSETPROEKT” korxonasi ish faoliyatini olib boradigan hodimlar tomonidan 2011 yil davomida ishlab chiqarilgan loyihalar hajmi 5458.1 mln so'mni tashkil etdi. 2012 yilda korxonaning jami hodimlar soni 234 tani tashkil etdi. Hodimlarning kategoriyasi bo'yicha eng ko'p hodimlar ishlab chiqarish sohasida band bo'lganlar 105 ta ishchini tashkil etadi. Boshqaruv tizimida band bo'lganlar soni 99 ta hodim, mutaxassislar 79 ta, yordamchi hodimlar 32 ta, administrative boshqaruvda 20 ta hodim, xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar 20 ta hamda texnik hodimlar 10 tadan iborat.

“SREDAZENERGOSETPROEKT” OAJning 2012 yil uchun daromadlar va xarajatlar rejasi 13-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

⁴⁸ «SREDAZENERGOSETPROEKT» OAJ ma'ruzalar to'plami, T.: 2011 yil, 69 bet.

⁴⁹ «SREDAZENERGOSETPROEKT» OAJ 2011 yil yakunlari va 2012 yil uchun rejalashtirilgan vazifalar. Toshkent 2012yil, 72 bet

13- jadval

**“SREDAZENERGOSETPROEKT” OAJning 2012 yil uchun daromadlar va
xarajatlar rejasi⁵⁰**

Ko’rsatkichlar	Mln.so’ m	Tushumdan daromad, %	Tushumdan xarajatlar, %
1. Yalpi tushum:	4970,0	100	100
shuningdek:			
Asosiy faoliyatdan	4900,0	98,6	
Qolgan tushum	70,0	1,4	
2. Jami xarajatlar:	4483,0		90,2
shuningdek:			
Ish haqi	2783,2		56,0
Majburiy ajratmalar - 25%	695,8		14,0
Qolgan xarajatlar	1004,0		20,2
Shuningdek: inshootlarni ta’mirlesh	361,7		7,3
3. Umumiy xo’jalik faoliyatdan tushgan foyda	487,0		9,8
4. Foyda xarajatlari			
shuningdek:			
- Foydadan soliq to’lash	97,5		2,0
- Kuzatuv boshqaruv xarajatlari	25,0		0,5
-OAJ ning sof foydasi	364,0		7,3

OAJ “SREDAZENERGOSETPROEKT”ning 2012 yil yalpi tushumi 4970.0 mln so’ m rejalashtirildi, buning asosiy qismi ya’ni 4900.0 mln.so’ m loyiha izlanish ishlaridan keladigan daromaddir. Jami xarajatlar 4483.0 mln so’ m

⁵⁰ «SREDAZENERGOSETPROEKT» OAJ 2011 yil yakunlari va 2012 yil uchun rejalashtirilgan vazifalar. Toshkent 2012yil, 78 bet

rejalashtirilmogda, xarajatlarning 56% hodimlarga to'laydigan ish haqiga to'g'ri keladi. Tashkilotning sof foydasi 364.0 mln so'mni tashkil etdi.

“SREDAZENERGOSETPROEKT” OAJning moliyaviy ko'rsatkichlar tahlilini 14-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

14-jadval

“SREDAZENERGOSETPROEKT” OAJning moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili⁵¹

Ko'rsatkichlar	2009	2010	2011	Farqi
	Ming so'm			
1	2	3	4	5
Realizatsiyadan tushgan tushum	4 056 894	4 241 840	4 817 021	+760 127
Ishlab chiqarish tan narxi	2 954 812	2 752 763	3 017 044	+62 232
Yalpi moliyaviy natija	1 243 685	1 489 077	1 799 977	+556 292
Vaqt oralig'idagi tushgan xarajatlar xa xarajatlar	894 562	919 314	958 256	+63 694
Asosiy faoliyatdan tushgan boshqa daromadlar	63 542	73 653	95 719	+32 177
Ishlab chiqarishdan tushgan	681 478	643 416	937 440	+255 962
Moliyaviy faoliyat yuritishdan tushgan daromad	2 547	3 373	2 976	+429
Moliyaviy faoliyat yuritishdan ketgan xarajatlar	95	93	163	+68
Xo'jalik faoliyatdan tushgan foyda	634 425	646 696	940 253	+305 828
Soliqlar	119 547	120 335	165 247	+45 700
Sof foyda	495 862	526 361	775 006	+279 144

2011 yilning tushumi 2009 yilga qaraganda 15% ga ya'ni 760127 ko'pdir. Ishlab chiqarish tan narxi 62232 ga oshdi, buning asosiy sababi oylik maoshni oshgani. Shuningdek soliqlar hamda davlatning maxsus fond ajratmalarini to'lash evaziga vaqt oralig'idagi tushgan xarajatlar ham 63694 ga oshdi. Buning natijasida xo'jalik faoliyatdan tushgan foyda 305828 ni tashkil etadi.

⁵¹ OAJ“SREDAZENERGOSETPROEKT” institutining 2011 yil yakunlari va 2012 yil uchun rejalashtirilgan vazifalar. Toshkent 2012yil, 54 bet.

Korxonaning moliyaviy natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, oxirgi 5 yil ichida tashkilot foyda bilan ish faoliyatini olib bormoqda.

Tashkilotning samaradorligini oshirishi uchun avvalo bo'limlarning ish faoliyatini takomillashtirish kerak, bu birinchi navbatda ishchi hodimlarni malakasini oshirish, ularga treninglar o'tkazish, xizmat safarlarda o'z tajribalarini oshirishga yordam berish, talaba murabbiy tizimini qo'llash, ya'ni yuqori malakaga va ish stajiga ega bo'lgan mutaxassisni yangi kelgan yosh ishchilarga biriktirish zarur. Bu tizim avvalo yosh hodimlarni ish tajribasiga o'rgatib, ikkinchi tomondan mutaxassislarni rag'batlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy samaradorlikka erishish uchun yaxshi mehnat sharoitlarni yaratish darkor. Har bir bo'lim boshqa bo'limlar bilan doimo va uzluksiz hamnafas ishlashi zarur. Buning natijasida loyiha izlanish ishlarini sifat darajasi oshadi va berilgan muddat ichida bu ishlar bajariladi. Samaradorlik avvalo ishlab chiqarish kuchlarini maksimal darajada qo'llab, mo'ljallangan foydani olish demakdir. Demak bunga erishish uchun yangi texnika va texnologiyani joriy qilish lozim. Modernizatsiya qilingan texnika texnologiya maxsulot tan narxini kamaytirishga, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarish kamaytirishga yoki umuman yo'q qilish bilan bog'liq korxonada faoliyatning ijobiy natijasiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy samaradorlikdir. Samaradorlikning eng muhim omili bu o'zini ish faoliyatini olib boradigan hodimlar, demak ularni oylik ish haqini vaqtida, kechiktirmay to'lab borish zarur, hamda yaxshi bajarilgan ishlari uchun rag'batlantirish zarur.

Tashkilot samaradorlikka erishish uchun o'z ish faoliyatini har doim tahlil qilishi zarur. Bu tahlilda o'zini kuchli va kuchsiz tomonlarni, imkoniyatlarni va xavf xatarlarni tahlil qilishi lozim. Shundagina bizning fikrimizcha korxonada maksimal samaradorlikka erishishi mumkin.

3.2. Korxonalarda eksport salohiyati va uni rivojlantirish yo'llari

Korxonada eksport bilan bog'liq faoliyatni tashkil qilish uchun boshlang'ich kapital moliya kapitali zarur. Bu ishni tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq xarajatlarni rejalashtirishni ham ko'zda tutadi. Tadbirkorlar, odatda, eksport

biznesining boshlang'ich bosqichlarida kerakli xarajatlar uchun o'z moliya mablag'larini institutlari va kredit tashkilotlari – banklarga murojat qilishadi.

Biznesning tashkil qilishning asosiy bosqichlaridan biri tadbirkorlik faoliyatining subyekt sifatida davlat ro'yhatidan o'tganlik amaldagi qonunchilik talab qilgan hollarda tovar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish eksport qilishga litsenziya yoki ruhsatnomaning mavjudligi hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, tadbirkor xo'jalik yurutuvchi subyekt sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi zarur, shuningdek, tadbirkor tanlagan tashqi iqtisodiy faoliyat qonunchilik aktlari bilan tartibga solinsa, ushbu soxada eksport faoliyati bilan shug'ullanish uchun barcha kerakli ruhsatnomalarni olishi shart. Keyingi bosqich, tadbirkor eksport rejasini tuzishi zarur.

Eksport rejasi biznesni maqsadli va rejali yuritishdagi muhim hal qiluvchi hujjat bo'lib, shuningdek, kreditlar olish va birlamchi kapitalning shakllanishi sari yo'l ochadi. Eksport rejasiga orttitilgan tajriba, erishilgan natijalar, strategiya tanlash va qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda o'zgaruvchi boshqaruvchi qurol deb qarash lozim. Bank va boshqa moliya tizmlari buni yaxshi biladilar va shu sababli yaxshi ishlab chiqilgan eksport rejasi bo'lmagan kompaniyalarning eksport operatsiyalarini moliya bilan ta'minlashdan bosh tortadilar. Hamkor va sarmoyadorlar tadbirkorning tashabbuslarini faqat aniq belgilagan maqsadlarni amalga oshirish mexanizmlariga ega bo'lgan bo'lsa, shuningdek, tegishli texnikaviy va insoniy salohiyatlar mavjud bo'lgan sharoitdagi ko'maklashishga rozi bo'ladilar.⁵²


Iqtisodiyotning real sektoriga investitsiyalarning keng jalb etilishi, eksport salohiyati va mahsulot eksporti hajmini oshirilishi milliy iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni ta'minlash borasidagi eng muhim natija bo'ldi, tashqi qarzlarning maqbul darajasi saqlangan holda, tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi va oltin-valyuta zahiralarning barqaror o'sishiga erishildi.

⁵² G'oyibnazarov B.K., Akramova N.I. "Korxonalar iqtisodiyoti" ma'ruzalar matni, TDIU, T.: 2010yil, 63 bet.

Biz O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlarini quyidagi 2-diagrammada ko'rishimiz mumkin.

2-diagramma

O'zbekiston Respublikasini tashqi savdo aylanmasi⁵³



2011 yil natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi 25 537,4 mln. doll. ga teng bo'lib, 2010 yilga qaraganda 115% ni tashkil etdi. Shu jumladan, umumiy eksportning hajmi 15 027,4 mln. doll. ga teng bo'lib, 2010 yilga nisbatan bu ko'rsatkich 115,4% ga o'sdi, import esa 10 510, 0 mln. doll. yoki 114.5% teng bo'ldi.

3-diagrammada O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo saldosini aks ettirilgan.⁵⁴

2011 yilda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini 4 517,4 mln.doll. ga yetib, 2010 yilga nisbatan, 670,0 mln.doll. ga ko'pni tashkil etdi. 2012 yilning birinchi choragi natijalari bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi 2011 yilning shu davriga nisbatan qariyb 102


⁵³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

foizni tashkil etib, 5 907, 4 million AQSH dollariga teng bo'ldi. Shu jumladan, umumiy eksport hajmi 2011 yilga nisbatan 92,5 foiz yoki 3 133,4 mln. AQSH dollarini, import esa 115,3 foiz yoki 2774,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Ta'kidlash kerakki, 2012 yilning birinchi choragida O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini 359,4 million AQSH dollariga teng bo'ldi.

3-diagramma

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo saldosini



O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining hajmi va dinamikasi siyosatning natijasi sifatida 2005-2011 yillarda qishloq xo'jaligining mamlakatimiz yalpi ichqi mahsulotidagi ulushi 30,1 foizdan 17,5 foizga kamayib, sanoatning ulushi 14,2 foizdan 24 foizga, xizmatlar ulushi esa 37 foizdan 49 foizga o'sdi.⁵⁵

Investitsion faollik ko'rsatkichlari keyingi yillarda ishchan muhitning sezilarli darajada yaxshilangani va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari barqarorligini erkin dalilidir. Masalan, o'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar hajmi 9,7 milliard AQSH dollarini tashkil etdi.

⁵⁵ Statistika to'plam O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiyava ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlarini Toshkent: "O'zbekiston" 2011, 72 bet

Tashqi savdo aylanmasi hajmining YaIMga nisbati 2011 yilda 56,1 foizni tashkil etdi. Tashqi savdoning ijobiy saldosini 2011 yilda 4 517,4million dollarni tashkil etdi.

2011yilda eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 60 foizni tashkil etdi, holbuki, 2000-yilda bu ko'rsatkich qariyb 46 foizni tashkil etgan edi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo dinamikasi va tarkibini ko'rib chiqamiz. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritishiga qadar, asosan sobiq ittifoq respublikalarini xom ashyo resurslari bilan ta'minlashga yo'naltirilgan edi. Iste'mol mahsulotlarining asosiy qismini respublikamizda ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligiga qaramasdan, ular chetdan keltirilgan edi.

O'tgan 20 yil mobaynida tashqi savdo aylanmasi 27,1 barobar o'sdi, shu jumladan, eksport hajmi - 29,5 barobar, import - 24,2 barobar oshdi. Bu jarayonda tashqi savdoning ijobiy saldosini 53 barobar ortib, oltin-valyuta zahiralarining yuqori darajada o'sishi va milliy valyuta barqarorligini ta'minladi.

Eksport va import tarkibi tubdan o'zgardi. O'zbekiston mustaqillikgacha bo'lgan davrdagi chetga xom ashyo chiqaradigan va tayyor mahsulotlar, asosan iste'mol tovarlarini olib kiradigan mamlakatdan bugungi kunda tobora qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni eksport qiladigan va qo'proq ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik modernizatsiya qilish uchun mo'ljallangan yuqori texnologiyalar asosidagi uskunalarni import qiladigan mamlakatga aylanib bormoqda.

15-jadvalda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo tarkibi aks ettirilgan.

Paxta tolasining eksportdagi ulushi kamayib, 2011 yilda 11,3 foizga tushdi. Hozirgi kunda eksportning umumiy hajmida xom ashyo hisoblanmaydigan tovarlar ulushi 70 foizdan ziyoddir.

Yurtimizda keyingi 10 yil mobaynida yengil avtomobillar eksporti 7,6 barobar, paxta kalavasi - 4,7 barobar, trikotaj matolar - 156 barobar, mineral o'g'itlar - 11,7 barobar, neft mahsulotlari - 6,5 barobar, sement - 6,3 barobar, sabzavot va mevalar eksporti 14,1 barobar o'sdi. Oziq-ovqat mahsulotlari 9.7

barobar, kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar hajmi 5.1 barobar, energiya va neft mahsulotlari 24.8 barobar, xizmatlar 9.1 barobar o'sishi kuzatildi.

Korxonalarining eksport hajmi yuz barobardan ko'proq oshdi.

15-jadval

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo tarkibi⁵⁶


	2000 yil	2005 yil	2011 yil
Tashqi savdo aylanmasi, million dollar	6212,1	14027	25 537,4
Eksport, million dollar	3264,7	8154,6	13044,5
Import, million dollar	2947,4	5873,6	8799,7
Saldo (+,-), million dollar	317,3	2281,1	4 517,4
Eksport (foiz)	100	100	100
Paxta tolasi	27,5	19,4	11,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	7,55	9,7
Kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar	2,9	4	5,1
Energiya va neft' mahsulotlari	10,3	17,55	24,8
Qora va rangli metallar	6,6	6,7	6,8
Mashina va uskunalar	3,4	4,45	5,5
Xizmatlar	13,7	11,4	9,1
Boshqalar	30,2	28,95	27,7
Import (foiz)	100	100	100
Mashina va uskunalar	35,4	39,75	44,1
Kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar	13,6	13,95	14,3
Energiya va neft' mahsulotlari	3,8	4,9	6,0
Qora va rangli metallar	8,6	8,5	8,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	12,3	11,6	10,9
Xizmatlar	8,5	6,6	4,7
Boshqalar	17,8	14,7	11,6

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Biz 3-diagrammada O'zbekiston Respublikasini 2011 yildagi korxonalar eksport tarkibini ko'rishimiz mumkin. 3-diagrammadan biz quyidagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin, ya'ni milliy korxonalar tomonidan energiya va neft mahsulotlarini umumiy eksport ulushidan 19 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari 13 % ni, xizmatlar 12% ni tashkil etdi. 7 % dan mashina va uskunalar hamda qora va rangli metallar eksportidan tarkib topgan.

3-diagramma

O'zbekiston Respublikasi 2011 yildagi eksport tarkibi.⁵⁷



O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibi 16-jadvalda aks ettirilgan.

Biz quyidagi jadvaldan 2011 yilda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibi asosan uzoq xorij mamlakatlari tashkil etgan, bu ko'rsatkich 57.1% tashkil etadi. Bundan eksport ulushi 55.3% va import ulushi 61.3% ni tashkil etdi. Mamlakatimiz iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchilarining tezkor rivojlanishi natijasida import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 4,5 barobar qisqardi.

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibi ⁵⁸

(foiz)

	2009 yil	2010 yil	2011 yil
Tashqi savdo aylanmasi	100	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	46,8	56,9	57,1
MDH mamlakatlari	53,2	43,1	42,9
Eksport	100	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	50,8	54,8	55,3
MDH, mamlakatlari	49,2	45,2	44,7
Import	100	100	100
Uzoq xorij mamlakatlari	52,9	59,9	61,3
MDH, mamlakatlari	47,1	40,1	38,7

Hozirgi paytda bug'doy importi nafaqat to'xtatildi, balki O'zbekiston o'z bug'doyi va g'allasidan tayyorlangan unni eksport qila boshladi. Go'sht mahsulotlarini import qilish 5 barobar, sut mahsulotlari 2,6 barobar, qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 3,5 marta, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar 16 va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari 7 barobardan ko'proq, gilam va yerga to'shaladigan qoplamalar 10 marta, trikotaj matolar 10 barobar, to'qimachilik-trikotaj liboslari 11 marta, poyafzallar importi 11 barobar kamaydi.

Mashina va uskunalarning import tarkibidagi ulushi o'sib, 1990 yildagi 12,1 foizdan 2000 yilda 35,4 foizga, 2011 yilda esa 44,1 foizga yetdi.

Tashqi savdo geografiyasi ham diversifikatsiya qilindi. Hozirgi kunda korxonalar tayyorlagan mahsulotlarini tashqi savdoga uzoq xorij mamlakatlariga eksport ulushi orta boshladi.

Davlatimiz tomonidan korxonalar eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar quyidagilar:

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

- eksportni rag'batlantirish, milliy mahsulotlar sifatini yanada oshirish asnosida uni jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini yanada oshirish va mustahkamlash;
- salbiy tashqi omillarga nisbatan mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni davom ettirish orqali respublika iqtisodiyotining muvozanatli rivojlanishi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- faol investitsion siyosatni olib borish, muhim strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish.

III-bob bo'yicha xulosalar

“SREDAZENERGOSETPROEKT” OAJning moliyaviy natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, oxirgi 5 yil ichida tashkilot foyda bilan ish faoliyatini olib bormoqda. Tashkilotning samaradorligini oshirishi uchun avvalo bo'limlarning ish faoliyatini takomillashtirish kerak, bu birinchi navbatda ishchi hodimlarni malakasini oshirish, ularga treninglar o'tkazish, xizmat safarlarda o'z tajribalarini oshirishga yordam berish, talaba murabbiy tizimini qo'llash, ya'ni yuqori malakaga va ish stajiga ega bo'lgan mutaxassisni yangi kelgan yosh ishchilarga birlashtirish zarur. Ijtimoiy samaradorlikka erishish uchun yaxshi mehnat sharoitlarni yaratish darkor. Har bir bo'lim boshqa bo'limlar bilan doimo va uzluksiz hamnafas ishlashi zarur. Buning natijasida loyiha izlanish ishlarini sifat darajasi oshadi va berilgan muddat ichida bu ishlar bajariladi.

Samaradorlik avvalo ishlab chiqarish kuchlarini maksimal darajada qo'llab, mo'ljallangan foydani olish demakdir. Demak bunga erishish uchun yangi texnika va texnologiyani joriy qilish lozim. Modernizatsiya qilingan texnika texnologiya maxsulot tan narxini kamaytirishga, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarish kamaytirishga yoki umuman yo'q qilish bilan bog'liq korxonalar faoliyatning ijobiy natijasiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy samaradorlikdir.

Tashkilot samaradorlikka erishish uchun o'z ish faoliyatini har doim tahlil qilishi zarur. Bu tahlilda o'zini kuchli va kuchsiz tomonlarni, imkoniyatlarni va

xavf xatarlarni tahlil qilishi lozim. Shundagina bizning fikrimizcha korxonalar maksimal samaradorlikka erishishi mumkin.

Yurtimizda keyingi 10 yil mobaynida yengil avtomobillar eksporti 7,6 barobar, paxta kalavasi - 4,7 barobar, trikotaj matolar - 156 barobar, neft mahsulotlari - 6,5 barobar o'sdi. Korxonalarining eksport hajmi yuz barobardan ko'proq oshdi. Eksport va import tarkibi tubdan o'zgardi.

O'zbekiston bugungi kunda tobora qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni eksport qiladigan va qo'proq ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik modernizatsiya qilish uchun mo'ljallangan yuqori texnologiyalar asosidagi uskunalarni import qiladigan mamlakatga aylanib bormoqda.

Bizning bugungi kundagi eng muhim ustuvor yo'nalishlarimiz chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, jadal va mutanosib rivojlanishni ta'minlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, investitsiyaviy ishchanlik muhitini shakllantirish va chuqurlashtirish, yuksak texnologiyalar asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish, eksport sohasidagi mavqeimizni mustahkamlashdan iboratdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, korxonalar bu huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi subyekt bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foyda) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi.

Korxonalar mustaqil xo'jalik subyektlari bo'lib, o'z nizomiga muvofiq daromad va foyda olish maqsadida asosiy va aylanma mablag'laridan foydalanib faoliyat yuritadi.

Korxonalarni mulk shakliga, xo'jalik yuritish shakllariga, faoliyat maqsadlariga, boshqarish tartibiga, faoliyat miqyoslariga, tarmoq tartibiga, bozorda tutgan o'rniga ko'ra tasniflash mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoq va sohalarida turli xil mulkchilik shakliga ega bo'lgan 500 mingta xo'jalik faoliyati yurituvchi subyekt mavjud bo'lib, ulardan qariyb 280 mingini kichik korxonalar hamda mikrofirmalar tashkil etadi. Korxonalarining eng katta qismi savdo va umumiy ovqatlanish (34%), qishloq xo'jaligi (41%), sanoat (9,4%) va qurilish (56%) sohalarida ro'yxatga olingan. Jami korxonalar miqdorida nodavlat sektorining salmog'i katta bo'lib, 82 %ni tashkil qiladi

Bozor munosabatlarining boshlangich bo'g'ini sifatida korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ularga korxonalar mustaqilligi, mulk va ishlab chiqarish vositalariga hukmronlik, egalik, kabi xususiyatlari mavjud.

Boshqaruv ishlab chiqarishning barcha qatnashchilari va elementlari o'rtasida kelishuvni yo'lga qo'yib, yuzaga kelgan munosabatlarning mazmuni va me'yorini tartibga soladi hamda resurslardan foydalanishning samarali yo'llarini topishga o'z hissasini qo'shadi.

O'zbekiston bugungi kunda tobora qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni eksport qiladigan va qo'proq ishlab chiqarishni texnik hamda

texnologik modernizatsiya qilish uchun mo'ljallangan yuqori texnologiyalar asosidagi uskunalarni import qiladigan mamlakatga aylanib bormoqda.

Korxonalarining eksport hajmi yuz barobardan ko'proq oshdi. Yurtimizda keyingi 10 yil mobaynida yengil avtomobillar eksporti 7,6 barobar, paxta kalavasi - 4,7 barobar, trikotaj matolar - 156 barobar, neft mahsulotlari - 6,5 barobar o'sdi. Eksport va import tarkibi tubdan o'zgardi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 2011 yilda O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini 4 517,4 mln.doll. ga yetib, 2010 yilga nisbatan, 670,0 mln.doll. ga ko'pni tashkil etdi. 2012 yilning birinchi choragi natijalari bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi 2011 yilning shu davriga nisbatan qariyb 102 foizni tashkil etib, 5 907, 4 million AQSH dollariga teng bo'ldi.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasida sanoat korxonalarini moliyalashtirish va korxonalariga investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hususan, sanoat korxonada ishlab chiqarishni yanada kengaytirish maqsadida, xorijiy investorlar sanoat korxonalariga o'z investsiyalarini joylashtirish uchun yangicha imkoniyatlar taklif etilmoqda.

Iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini yanada kuchaytirish, aholi farovonligini yuksaltirish ko'p jihatdan bizning mavjud resurslardan, birinchi navbatda, elektr va energiya resurslaridan qanchalik tejimli foydalana olishimizga bog'liqdir. Shuning uchun - elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish - bu inqirozga qarshi choralar dasturida belgilangan kompleks chora-tadbirlarning asosiy vazifalardan biridir.

Mazkur bitiruv malakaviy ishni tadqiqot obyekti OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT" ning asosiy faoliyat sohalari energotizimlarni rivojlantirish chizmasini ishlab chiqish; elektrostansiyalarni quvvatini hisoblash chizmalarini tuzish; yirik sanoat korxonalarining tashqi elektr ta'minlash chizmalarini tuzish; 35 kv va undan baland bo'lgan kichik stansiyalar hamda elektr tokini o'tkazish tarmoqlarining umumiy loyiha-tadqiqot ishlarini amalga oshirish; elektr toki tarmoqlari va kichik stansiyalar himoyalash dasturi va avtomatikasi

bo'yicha loyihallarni tuzish, energetika sohasini rivojlanishning prognozi va texnik-iqtisodiy izlanishlarni olib borish.

OAJ "SREDAZENERGOSETPROEKT" 2011 yilda moliyalashtirilgan barcha manbalari hisobiga 159,3 mlrd. so'm kapital mablag'lar o'zlashtirdi, shu jumladan kompaniyaning o'z mablag'laridan 133,9 mlrd. so'm, xorijiy kreditlardan 14,14 mln. AQSh dollari o'zlashtirildi. Korxonaning moliyaviy natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, oxirgi 5 yil ichida tashkilot foyda bilan ish faoliyatini olib bormoqda.

Biz bitiruv malakaviy ishimizda quyidagi takliflarni tavsiya etamiz:

1. Tashkilotning samaradorligini oshirishi uchun avvalo bo'limlarning ish faoliyatini takomillashtirish kerak. Boshqaruv apparati faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarini aniqlash zaruriyati iqtisodiyotning hozirgi sharoitida yangi boshqaruv funksiyalarining tashkil etilishi bilan boshqaruv apparati hodimlarining soni oshib, ularga sarflanadigan xarajatlar salmog'ining ko'pyishi bilan bog'liq. Shuning uchun boshqaruv apparati faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarini aniqlab va uni baholash ichki audit xizmati orqali amalga oshirish mexanizmini shakillantirish zarurdir.

2. Korxonalarda qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tan narxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish. Shuningdek, tannarxni kamaytirish bo'yicha belgilangan parametrlarga erishish uchun rahbar va mas'ul xodimlarni rag'batlantirishning ta'sirchan mexanizmini ishlab chiqish.

3. Korxonada ichki mehnat taklifi tarkibining o'zgarishlariga faol ta'sir ko'rsatadigan o'z kadrlar siyosatini ishlab chiqarish va amalga oshirish, shu jumladan, kadrlar malakasini oshirish, aralash kasblarga qayta tayyorlash va o'qitishni o'z ichiga oladigan "Hodimlarni rivojlantirish dasturi"ni ishlab chiqish. Hususan ishchi hodimlarni malakasini oshirish, ularga treninglar o'tkazish, xizmat safarlarda o'z tajribalarini oshirishga yordam berish, talaba murabbiy tizimini qo'llash, ya'ni yuqori malakaga va ish stajiga ega bo'lgan mutaxassisni yangi kelgan yosh ishchilarga biriktirish zarur.

4. Korxonalar hodimlarining innovatsion jarayonlarga mos kasb-malakasini takomillashtirib borishlariga erishish. Ayni vaqtda innovatsion rivojlanishi yuqori texnologik sohalarda qo'shimcha o'n mingta yangi ish o'rinlarini yaratishi mumkin bo'lgan O'zbekistonda alternativ energetikani jadal ishga tushirishga bo'lgan qiziqish saqlanib qolmoqda. Quyosh elektroenergetikasi karbonat angidrid gazini chiqarishni keskin qisqarishi hamda ekologiyani yaxshilash imkonini beradi. Istiqbolli loyihalardan biri bo'lib 100 megavatt quvvatga ega Shamolparkining qurilishidir. Loyiha xususiy mablag'lar va grant investitsiyalar hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli mazkur yo'nalishdagi rivojlanish juda muhim. Umuman noana'naviy yangilangan energiya manbaalarini rivojlantirish orqali "yashil" energetika siyosatining o'tkazilishi 2050 yilga borib energiya ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi karbonat angidridni tarqalishini 50% ga qadar qisqartiradi.

5. Respublika miqyosida yirik sanoat korxonalarini rivojlantirishda kichik biznes subyektlari bilan kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash maqsadida kichik biznes subyektlarining uyushmalarini tuzish, ularda korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish. Tadbirkorlarni bandlikni o'stirishga rag'batlantirilgan vositalarini ishlab chiqish.

6. Korxonalar faoliyatini tashkil etish va yuritish bilan bog'liq muammolarni bartaraf qilishda axborot-maslahat outsorsing xizmatini joriy etish.

Bizning bugungi kundagi eng muhim ustuvor yo'nalishlarimiz chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, jadal va mutanosib rivojlanishni ta'minlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, investitsiyaviy ishchanlik muhitini shakllantirish va chuqurlashtirish, yuksak texnologiyalar asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish, eksport sohasidagi mavqeimizni mustahkamlashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari:

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: «O'zbekiston», 2010yil.
- 1.2. «Raqobat to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2012 yil, 5 yanvar.
- 1.3. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2008 yil.
- 1.4. «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2008 yil.
- 1.5. «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2008 yil.
- 1.6. «Комментарии к закону Республики Узбекистан «О Банкротстве» Главная редакция издательского-полиграфической акционерной компании «Shark». Ташкент - 2007.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni 1996 yil 26 aprel, Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'plami. 1 tom. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2006.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasining «Xususiy korxonalar to'g'risida»gi Qonuni. Qonun va qarorlar. T., «O'zbekiston», 2004., №3
- 1.9. O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida»gi Qonuni 2001 yil 6 dekabr, Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'plami. 1 tom. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2002.
- 1.10. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida»gi Qonuni 2001 yil 6 dekabr, Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'plami. 1 tom. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2002.
- 1.11. O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi Qonuni 1998 yil 29 avgust, Tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'plami. 1 tom. - T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2002.
- 1.12. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonuni. - T.: Adolat, 2000.
- 1.13. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari» to'g'risidagi Qonuni 1998 yil 30 aprel. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonun xujjatlari: (Me'yoriy xujjatlar to'plami): 2-kitob. - T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1999.
- 1.14. O'zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va himoya qilish choralari to'g'risida»gi Qonuni 1998 yil 30 aprel. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi qonun xujjatlari: (Me'yoriy xujjatlar to'plami): 2-kitob. - T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1999.

- 1.15. «Tabiiy monopoliyalar to'g'risida»gi qonunga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.815-I-sonli, 19.08.1999.
- 1.16. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'grisidagi qonunda kadrlar tayyorlash milliy dasturi (O'zbekiston Respublikasi 29.08.1997 y. qonuni bilan tasdiqlangan).

2. O'zbekiston Reapublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari.

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18-noyabrdagi PF-4053 sonli «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19- noyabrdagi F-4010 – sonli «Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish to'g'risidagi tartibini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoyishi.
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28-noyabrdagi PF-4058 sonli «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi Farmoni.
- 2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni.
- 2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimlarini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi 2005 yil 14 iyundagi PF-3619-sonli Farmoni.
- 2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2005 yil 14 iyundagi Farmoni.
- 2.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mikrofimlar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirishdagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2005 yil 20 iyundagi PF-620-sonli Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa huquqiy me'yoriy hujjatlar

- 3.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 23-yanvardagi № 2181 sonli «Auktsion va tanlov savdolarida sotilgan iqtisodiy nochor korxonalar bo'yicha tijorat banklari tomonidan investitsiya majburiyatlarini bajarilishi yuzasidan monitoring yuritish tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori.
- 3.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 yanvardagi «O'zbekistonda BMTning ming yillik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori.

- 3.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5-maydagi № 209 sonli «Davlat mulki ayrim obyektlarini investitsiya majburiyatlari evaziga bepul berishni jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
- 3.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 18-apreldagi № 188 sonli «Amalga oshirilayotgan iqtisodiy nochor korxonalarini tarkibiy o'zgartirish va moliyaviy sog'lomlashtirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
- 3.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 16-sentyabrdagi № 401 sonli «Foydalanilmayotgan asosiy vositalarni, qurilishi tugallanmagan obyektlarni konservatsiya qilish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori.
- 3.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 26-avgustdagi № 368 sonli «Past rentabelli, zarar ko'rib ishlayotgan iqtisodiy nochor davlat korxonalarini va obyektlarni xususiylashtirishni jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
- 3.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 8-oktyabrdagi № 347 sonli «Iqtisodiy nochor korxonalarini tugatish va ularning tarkibini o'zgartirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori.
- 3.8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori. «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida». Toshkent, 2000 yil 25 may.
- 3.9. Mutahassislar tayyolashning 2010 yilgacha mo'ljallangan Milliy dasturi. - Toshkent, 1997yil

4. O'zbekiston respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari.

- 4.1. Karimov I.A. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.
- 4.2. Toshkentdagi Simpoziumlar saroyida 17-fevral kuni Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan tashkil etilgan «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzuidagi xalqaro konferensiyasidagi ma'ruzasi, 2012 yil.
- 4.3. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir» Jizzah haqiqati gazetasi. 2010 yil 30 yanvar.
- 4.4. Karimov I.A. 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiyasi» mavzusida qilgan ma'ruzasi.
- 4.5. Karimov I.A. «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish-taraqqiyotimizning muhim omillidir» O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 07.12.2010

- 4.6. Karimov I.A. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir».T.: «O'zbekiston», 2010.
- 4.7. Karimov I.A. 2009 yil 17 martdagi PQ-1073 sonli «Krizisga qarshi dasturga kiritilgan qo'shimcha infratuzilma obyektlari bo'yicha loyihalarni amalga oshirish chora –tadbirlari to'g'risida»gi Qarori
- 4.8. Karimov I.A. « Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari « T.: -O'zbekiston.- 2009.
- 4.9. Karimov I.A. «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009.
- 4.10. Karimov I.A. «Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida». T.: «O'zbekiston», 2008.
- 4.11. Karimov I.A. «Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz».T.: O'zbekiston, 2008.
- 4.12. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari». T., 1997.
- 4.13. Karimov I.A. «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari».T., «O'zbekiston», 1996.
- 4.14. Karimov I.A. «O'zbekistonni iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.» Toshkent «O'zbekiston»,1995
- 4.15. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». T., 1995.
- 4.16. Karimov I.A.»O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga hos yo'li» Toshkent, «O'zbekiston», 1993
- 4.17. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li». T., 1992

5. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar va maqollar to'plami.

- 5.1. Бендиков М.А., Джамай Е.В. “Совершенствование диагностики финансового состояния промышленных предприятий” учебник // Менеджмент в России и за рубежом ,Москва 2012 год.
- 5.2. В.Я.Горфинкель, Е.М. Купряков "Экономика предприятий", учебное пособие М.:ВУЗ, 2011 г.
- 5.3. Макаревиц М.С., Смолькин Л.Г., Трубочкина М.И. “Экономика предприятия” учебное пособие “Москва” 2011 год.
- 5.4. G'oyibnazarov B.K., Akramova N.I. “Korxonalar iqtisodiyoti” ma'ruzalar matni, TDIU, T.: 2010yil
- 5.5. To'hliiev N. «O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti» darslik. Toshkent, 2010y.
- 5.6. N.Tuhliiev, K.Hakberdiev, Sh.Eshmatov, N.Holmatov «O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari» darslik T., «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2006.
- 5.7. B.A.Abdukarimov, A.N.Jabriyev, N.R.Zugurov, A.T.Qutbetdinov, M.Q.Pardaev, E.Sh.Shavqiyev «Korxonalar iqtisodiyoti»,darslik T.:2005
- 5.8. Yuldoshev Z. «Milliy iqtisodiyot (o'quv qo'llanma), Moliya instituti. T., 2004

- 5.9. Ishmuhamedov A.E. «Iqtisodiy xavfsizlik». O'quv.qo'll. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004.
- 5.10. Akromov E.A «Korxonalarining moliyaviy xolati taxlili». Darslik– T.: Moliya, 2003.
- 5.11. Abdulkarimov I.T. « Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili».o'quv qo'llanma T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2003.
- 5.12. G'ulomov S.S. «Tadbirkorlik va kichik biznes», darslik T., 2002.
- 5.13. «O'z Ishingizni yarating yoki tadbirkor nimalarni bilishi lozim» - Toshkent shahri, YunIDO, «Biznes maslahat markazi» loyihasi, 2003.
- 5.14. «SREDAZENERGOSETPROEKT» OAJ ma'ruzalar to'plami Toshkent, 2011 yil.
- 5.15. «SREDAZENERGOSETPROEKT» OAJ 2011 yil yakunlari va 2012 yil uchun rejalashtirilgan vazifalar. Toshkent 2012yil.
- 5.16. «SREDAZENERGOSETPROEKT» OAJ biznes plani Toshkent 2012 yil.

6. Foydalanilgan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari.

- 6.1. Pavlova A.V. «Структурные преобразование компании как механизм антикризисного управления». Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2011.
- 6.2. Kuziyeva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Doktorlik dissertatsiyasining avtoreferati, 2011 yil.
- 6.3. Safarov G.A.»Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishini soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalari» iqtisod fanlari nomzod ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan avtoreferat, 2011 yil.
- 6.4. Karimov A.A. «Korporativ boshqaruv tizimida buxgaltriya hisobi va auditni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari» Doktorlik dissertatsiyasining avtoreferati, 2010 yil.

7. Foydalanilgan magistrlik dissertatsiyalari va bitiruv malakaviy ishlari.

- 7.1. Bahodir A. «Aksionerlik korxonalarida kapitaldan unumli foydalanishining asosiy yo'nalishlari («Mehmash» OAJ misolida)». Magistrlik dissertatsiya avtoreferati, 2011 yil.
- 7.2. Baratov B. «Bozor munosabatlari sharoitida sanoat korxonalarini faoliyatining moliyalashtirish manbalari va ulardan oqilona foydalanish. («Mehmash» OAJ misolida)» magistrlik dissertatsiya avtoreferati, 2011 yil.
- 7.3. Saidahmedov H.S. «Kichik biznes rivojlantirish muammolari» (Andijon viloyati misolida) magistrlik dissertatsiya avtoreferati, 2010 yil.

8. Jurnal va gazetalardagi maqolalar.

- 8.1. «O'zbekiston iqtisodiyoti» jurnali 2010-2011 yillardagi sonlari.
- 8.2. «Bozor, pul va kredit» jurnali 2010-2011 yillardagi sonlari.
- 8.3. «Jamiyat va boshqaruv» jurnali 2010-2011 yillardagi sonlari.
- 8.4. «Birja eksperti» jurnali 2010-2011 yillardagi sonlari.
- 8.5. «Korxonani boshqarish» jurnali 2010-2011 yillardagi sonlari.
- 8.6. Xalq so'zi gazetasi 2010-2011 yillardagi sonlari.
- 8.7. Soliq va bojxona xabarları gazetasi 2010-2011 yillardagi sonlari

9. Hisobotlar va statistik materiallar.

- 9.1. Statistik to'plam. «O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozları» Toshkent: «O'zbekiston» 2011.
- 9.2. Statistik to'plam. «O'zbekiston Respublikasining Investitsiyalari 2010. T.; Davlat Statistika Qo'mitasi, 2010.
- 9.3. OAJ «SREDAZENERGOSETPROEKT»ning 2010-2012 yillardagi yillik hisobot ma'lumotlari.

10. Internet sahifalari.

- 10.1. www.gov.uz (O'zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti)
- 10.2. www.soliq.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasini sayti)
- 10.3. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasini sayti)
- 10.4. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligini sayti)
- 10.5. www.ziyonet.uz
- 10.6. www.uztadbirkor.uz
- 10.7. www.lex.uz
- 10.8. www.uza.uz
- 10.9. www.mvestit.ru
- 10.10. <http://caselaw.findlaw.com/us-9th-circuit/1370920.html>
- 10.11. <http://uscode.house.gov/download/downloadISO.shtml>
- 10.12. <http://en.wikipedia.org>
- 10.13. <http://www.businessweek.com/magazine/content/0>
- 10.14. http://www.law.cornell.edu/uscode/usc_sup_01_11.html
- 10.15. http://www.pacepartners.org/files_pub/news_2002_q3.pdf

ILOVALAR